

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

«TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

**“ISLIMIY NAQSHLARDAN FOYDALANIB, SOVG'ABOP
BUYUMLAR TAYYORLASH”**

(KASHTACHILIK MISOLIDA)

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: (Kasb ta'limi) Tasviriy
san'at va muhandislik grafikasi ta'lim
yo'nalishi 4-T guruh talabasi
Hasanova Dilixush.

Ilmiy rahbar:
O'qituvchi Xakimova G.A.

Fakultet dekani: Psixologiya
fanlari doktori Professor - Barotov
SH.R.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi «_____» _____ 2016 yil

BUXORO – 2016 y

Mavzu:
**“Islimiy naqshlardan foydalanib, sovg’abop buyumlar
tayyorlash”.**
(Kashtachilik misolida)
Reja:

KIRISH

I-BOB. NAQQOSHLIK SAN’ATI VA UNING TARIXI.

1.1.NAQSH VA UNING TURLARI.

1.2.TABIIY O’SIMLIKLAR TURLARINI NAQSH ELEMENTLARI HOLATIDA
CHIZISH. STILISATSIYA.

II-BOB. MILLIY KASHTACHILIK TARIXIDAN.

2.1. BUXORO VA NUROTA KASHTACHILIK MAKtablari.

2.2.KASHTACHILIKDA NAQSH KOMPOZITSIYASI VA UNING TURLARI.

2.3. KASHTA TIKISH TEXNOLOGIYASI.

2.4.KASHTACHILIK MISOLIDA SOVG’ABOP BUYUM TAYYORLASH
TEXNOLOGIYASI.

2.5. XULOSA

2.6.ILOVA

2.7.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

MUNDARIJA

KIRISH

“San’at - tabiatga tahlildir”.

Arastu.

Naqqoshlik - o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng jozibali va nafis to'rlaridan biridir! Binobarin xalq amaliy san'atining barcha turlarini naqsh elementlarisiz tasavvur etish qiyin. Naqsh - gul, bezak degan ma'noni anglatib, amaliy san'at asarlariga chiroy bag'ishlaydi. Bunday bezak elementlari esa, tabiatda uchrovchi o'simlik dunyosi, xayvonlar tasviri va koinot jismlarining eng sodda ko'rinishlari orhali aks ettiriladi.

Naqqoshlik san'ati qadimdan insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qilib kelgan. Xalq ustalari tomonidan jilolangan me'moriy obidalar, turar joy va ro'zqor buyumlari go'zallikni idrok etishimiz, ma'naviyatimiz va o'zligimizni chuqurroq anglashimiz borasida bebaqodir. Otabobolarimizning bizga qoldirgan ma'naviy merosi cheksiz. Shulardan biri san'at asarlaridir. Xalq amaliy san'ati asarlari nafaqat bezakdorligi, chiroyli shakllari, qadimiyligi hamda chuqur falsafiy, tarbiyaviy, ruhiy xususiyatlari bilan o'zining yuksak qiymatiga ega. Farzandlariga yoshlik choqlaridan hunar o'rgatib kelgan xalqimiz o'zining an'alaridan, urf-odatlaridan, turli ma'naviy meroslaridan unumli foydalanib keladi. Bugungi kunimizda qam xalqimizning an'alarini, usta va shogird asosida yoshlarimizga hunar o'rgatishga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa oliy ta'lim muassasalarini, turli san'at akademik litsey va kasb-xunar kollejlarda yoshlarning kasb-hunar faoliyati bilan shuqullanishlari uchun zarur shart - sharoitlarni vujudga keltirish, ularni mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni berish uchun samarali mehnat qilinmoqda. Shuningdek, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va uni yanada yuksaltirish yo'lida ta'lim-tarbiya tizimini yuksaltirish muxim ahamiyatga egadir.



Naqqoshlik san'ati qam hunar, qam san'atdir. Bu va bu kabi san'at turlarini egallash yoshlarning badiiy madaniyatini, tafakkurini, dunyoqarashi va estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Naqqoshlik san'ati asirlar davomida ajdodlarimiz tomonidan ko'z qorachiqiday asrab-avaylab kelindi va kelinmoqda. Hozirgi yosh avlod uni qabul qilib olarkan, o'z oldida turgan mas'uliyatni bir daqiqa qam unutmasligi lozim. Xozirgi kunda Respublikamizda ta'lim-tarbiyanin jaxon standartlari talab darajasida bo'lishi aloxida axamiyatga egadir.

“Xalq badiiy xunarmandchiligi va amaliy san'atining yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab - quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida”gi Prezidentining Farmoni bir necha muxim, dolzarb masalalarni o'z ichiga olishi bilan birgalikda - ta'lim - tarbiya tizimini tubdan isloq qilish, uni zamon talabi darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini parpo qilish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat. Xozirgi kunda Respublikamizda ta'lim-tarbiyanin jaxon standartlari talab darajasida bo'lishi aloxida axamiyatga egadir. Bugungi kunimizda amaliy san'at ustalarining yangi avlodlarini tarbiyalash, ularning barkamollikka erishishlari yo'lida barcha sharoitlar mavjud.

Mavzuning dolzarbligi

Prezidentimiz I.A.Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzusidagi ma'ruzalarida mehnat va kasb ta'limi sohasida, o'qituvchi va tarbiyachilarning qay darajada yetuk bilimli bo'lishlari kerakligi haqida alohida to'xtalib o'tganlar.

Davlat talablarida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisi o'z sohasiga tegishli barcha meyoriy - huquqiy, meyoriy - uslubiy hujjatlarni bilishi, o'quvchilar bilimini baholashning yangicha usullari, ayniqsa, reyting tizimini mukammal qo'llay bilishlari kerakligi haqida talablar qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13-maydagi «Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida»gi 203-sonli qarorini bajara borib, viloyatimiz maktablarida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atining ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash, an'anaviy va o'ziga xos turlarni qayta tiklash, hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash yo'llari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi PF-1714 sonli badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risidagi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1977-yil 4-iyun 282-sonli qarorida o'z aksini topgan. Farmon hunarmandlar va amaliy san'at ustalari uchun o'z vaqtida qabul qilingan eng muhim xujjat va kelgusi ishlarni yanada rivojlantirishga dastur amal bo'ldi.

Shuningdek farmonda yana "San'atning noyob turlarini va buyumlarining yuksak badiiy nusxalarni tayyorlashda an'analarni saqlab qolish, hamda bu ish ko'nikmalarini yoshlarga singdirish masalalari ko'rildi. Mohir ustalarni tayyorlash bo'yicha maxsus "Ustoz - shogird" maktablarini tashkil qilish" bayon etilgan. Shu qatorda amaliy san'at bo'yicha badiiy to'garaklar tashkil etib, amaliy san'atimizga qiziqqan yoshlarni jalb qilib o'rgatish ustuvor vazifa bo'ldi.

Hozirgi kunda eng qadimiy amaliy san'at turlaridan bo'lmish kashtachilikda, usta - hunarmandlarimiz va metodist o'qituvchilarimiz tomonidan bir qator ijodiy ishlar olib borilmoqda. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini o'rganish jarayonida, muammo bilan bog'liq bir qator ijodkor ustalar qoldirgan amaliy ishlar namunalari, san'atshunos-metodistlar qalamiga mansub adabiyotlar bilan tanishib chiqdim. Bunda kashtachilik san'atini yanada rivojlantirishda, to'garaklarni qaytadan yo'lga qo'yib, tashkil qilishning o'rni haqida aytib o'tilgan. Haqiqatdan ham bu to'garaklarni qaytadan to'liq yo'lga qo'yish va shu orhali qadimiy usta - hunarmandlar olib borgan ish texnikasini asos qilib olish, mavzu ustida ishlashga sabab bo'ldi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda va undan tashqarida xalqimizning boy va betakror badiiy boyligiga va milliy qadriyatlariga, qolaversa o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy hayotida, hozirgi madaniyatning rivojlanishi uchun asos bo'lgan. Tanlangan mavzuning muhimligi shundan iboratki, O'zbekistonda juda qadimdan rivoj topgan kashtachilik san'atida hunar sirlarini mukammal o'zlashtirib, bu hunarni san'at darajasiga ko'tarishdir.

Tadqiqot maqsadi va vazifasi:

Mazkur bitiruv malakaviy ishi o'zbek milliy amaliy san'ati turlaridan biri hisoblangan kashtachilik san'atidan kasb - hunar kollejlari to'garaklar tashkil qilish metodikasi haqida bo'lib, barcha "Amaliy bezak san'ati" fani o'qituvchilari, kasb - hunar kollejlari, umumta'lim maktablari va to'garak o'quvchilarining ushbu san'at sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, kelajakda yoshlarni avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy an'analar asosida voyaga yetkazishni maqsad qilib qo'yadi.

Bitiruv malakaviy ishning yozilishidan asosiy maqsad - kashtachilik san'atining maktablarini o'rganib chiqish, bunda islmiy naqshlardan foydalanib, kashtachilik misolida sovg'abop buyumlar tayyorlash va qiyosiy tahlil qilishdir. Maqsaddan kelib chiqqan holda bir qator aniq vazifalar qo'yilgan :

- Naqqoshlik san'ati;
- Naqsh turlari;

- Islimiy naqshlar va ularning o'ziga xosligi;
- Kompozitsiyada metric takrorlanish, ritm.
- Stilizatsiya, islmiy naqsh elementlarini chizish.
- Kashtachilikda sovg'abop buyumlar tayyorlash texnologiyasi masalalarini chuqur o'rganish, tikish uslublariga ham tavsif berish.

Tadqiqot ob'yekti:

Kasb-hunar kollejlarda, maktabda va maktabdan tashqari muassasalardagi amaliy san'at to'garaklari va "Kashtachilik" san'atini yoshlarga o'rgatishda qo'llash jarayoni.

Tadqiqot predmeti:

Amaliy san'atda to'garaklarni tashkil etish shakllari va uslublarini ishlab chiqish va amalda qo'llash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Amaliy san'atda kashtachilik to'garaklarini yangi zamonaviy uslubini ishlab chiqarish. Qadimiy amaliy san'at turlaridan bo'lmish, kashtachilik san'ati sirlarini o'rgatish uchun to'garaklarini tashkil qilish metodikasiga asoslanib to'garaklarni tashkil etish, bunda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanish. Kashtachilik san'ati o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalari mashg'ulot turlariga dars bayonini va ishlanmasini tayyorlash. Hozirgi kun talabiga javob beradigan, yangi o'quv xonalarini badiiy did bilan bezash, yangi yetapli (bosqich) uslubi ishlab chiqariladi.

NAQQOSHLIK SAN'ATI VA UNING TARIXI

Naqqoshlik san'ati barcha amaliy san'at turlarining tarkibiy qismi o'laroq, O'rta Osiyo xalqlari orasida o'zining nafis shakllari, rangin tovlanishi hamda ramziy ma'nolariga boyligi bilan qadimdan keng rivojlanib kelmoqda.

Ma'lumki Vatanimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm kabi shaharlardagi ko'hna obidalar



ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, sangtaroshlik, naqqoshlik, koshinkorlik namunalari bilan o'ziga xos ravishda bezatilgan. Ulardagi betakror naqsh bezaklarini kuzatar ekanmiz, ijodkor bo'yoqlar orhali shakllarni qanchalar nafis ifodalay olganidan xayratga tushamiz, Shuningdek, tarixiy Baqtriya, Suqd, Xorazm, Shosh kabi qududlardan topilgan bezakli ashyolarning o'ta qadimiyligi ham, insoniyatning go'zallik olamiga qanchalar intiq yashaganligidan dalolat beradi. Tarixdan har bir davr naqqoshlik san'atining rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shib, uning yanada rivojlanib, taraqqiy etishiga zamin yaratib kelgan.

VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoga islom madaniyatining kirib kelishi, badiiy bezak va naqqoshlik san'atining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Mahobatli rasmlardagi jonli mavjudotlar o'rnini tabiat tasvirlari, o'simliksimon va geometrik elementlar ishtirokidagi naqsh namunalari egalladi. Arab yozuvlari o'zlashtirilib, bezakli (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi.

Naqqoshlikda turli shakllar, gul elementlari va rang tuslarining ramziy falsafiy ma'nolari kengroq ifodalana boshlandi:

Kvadrat - abadiylik, mustaxkamlik .

Quyosh - hayot ramzi.

Zirk guli (gulsafsar) osoyishtalik va uzoq umr.

Olma - muxabbat ramzi.

Sher - mardlik, adolat va kuchlilik ramzi.

Xumo - baxt keltiruvchi qush.

Yashil rang - ona zamin.

Havo rang - musaffo osmon.



O'rta Osiyoga bostirib kelgan Chingizxon (XIII asr) qo'shinlari madaniy hayotni birmuncha izdan chiqardi. Temur va Temuriylar davriga kelib esa ilmu-fan, madaniyat va san'at keskin rivojlandi. Ko'plab tarixiy inshootlar qurilib ular koshinkorlik, unvonli serhasham yozuvlar va turli o'yma naqshlar bilan bezatildi. Natijada hattotlik, kitobat va minatyura san'atlari yanada rivoj topdi. Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi ko'plab naqqosh - musavvirlar; Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Nizomiy

Ganjaviy va ko'plab buyuk zotlarning asarlarini ajoyib tasvir va naqshlar bilan bezaganlar.

XVI-XVII asrlarda Buxorodagi Abdulazizxon madrasasi (XVI asr) Baland masjidi (XVI asr) Xo'ja Zayniddin xonaqosi (XVI asr) Samarqanddagi Tillaqori madrasasi (XVII asr) va Zarxal naqshlar (kundal texnikasi) bilan bezatildi. Bu usul "mahzi soxta" deb ham yuritiladi. Naqqoshlikda lojuvard, yashil, qizil, tilla hal bo'yoq tuslarini o'zaro bog'lanishi asosidagi "turunj" namoyon, girih usullaridan tashkil topgan naqsh namunalari ko'plab ishlangan. Naqqoshlik san'atida o'ziga xos naqsh maktablari shakllana boshlandi. Ko'plab xalq ustalari yetishib chiqib faoliyat ko'rsatdilar.

XX asr boshlarida naqqosh ustalar: Olimjon Qosimjonov, usta Sherali Xoji, Rauf Nazarov, ustazoda Yoqubjon Raupov, Vakil va Sobir Isayevlar Toshkentdagi Romanovlar saroyini, hozirgi xalq amaliy san'ati muzeyi binosini va boshqa binolarni sharqona naqsh namunalari bilan bezadilar.

1947 yilda qurib bitkazilgan O'zbekiston Davlat opera va balet katta teatri binosining bezak ishlarida usta Vakil va Sobir Isaevlar, Yoqubjon Raupov, Olimjon Qosimjonov, Jalil Hakimovlar samarali mehnat qildilar. Teatr binosini 1966 yilda qayta ta'mirlash ishlarida ham mohir usta Jalil Hakimovning xizmatlari katta bo'ldi. Yangi naqsh kompozitsiyalarini odatda naqqosh ustalar chizib berganlar. Ular xalq amaliy san'ati turlari uchun chiziluvchi naqshlarning kompozitsion tuzilishini, chizish, o'yish, tikish usullari va pardozi berish qoidalarini yaxshi bilganlar.

Naqqosh ustalar bir vaqtning o'zida bir necha hunar turlarini ham egallab borganlar. Masalan: Toshkentlik pargori usta Olimjon Qosimjonov, naqqosh Jalil Hakimovlar yog'och o'ymakorligini, Xivalik Abdulla Boltayev naqqoshlik, misgarlik kabi hunar turlarida erkin ijod qila olganlar. Handasiy naqsh kompozitsiyalari, girihlarni tuzuvchi ustalarni naqqoshlikda girihkor, katta ustalar deb atashgan. Geometrik naqqoshlarni gumbaz mehrob va turli assimetrik shakllarda qo'llab ishlash ancha murakkab ish sanaladi.

O'zbekistonda naqqoshlik san'atining o'ziga xos bir necha maktablari mavjud bo'lib, ular XX asrning o'rtalarida qayta shakllanib yanada rivojlandi. Toshkent naqqoshlik maktabi o'ziga xos uslubga ega.

Bu uslubda ishlangan naqshlar rang tuslarining nozikligi, yashil havo rang hamda oltinsimon jigarrang koloritlarda ishlanishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, naqsh elementlarining xilma-xilligi pardozi usullarining ko'proq targ'il tortish texnikasi bilan bajarilishi o'ziga xosdir. Toshkent naqqoshlik maktabining namoyondalari Sherali Hoji Hasanov, Vakil va Sobir Isaevlar, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raupov, Jalil Hakimov, Toir To'xtaxo'jaev, Mahmud To'raev, Komil Karimov va Anvar Ilxomovlardir.

Farg'ona naqqoshlik maktabining uslubi naqsh kompozitsiyalarida ortiqcha shakl yasovchilarisiz, zamin bo'shliqlari islamiy gul va novda shakllari bilan mohirona to'ldiriladi.

Farg'ona naqshlariga to'qroq, qarama - qarshi (kontrast) ranglar jilvasi ulug'vorlik bag'ishlaydi. Gul va barg elementlarining pardozlari ko'proq yedirma uslubida bajariladi. Farg'ona naqqoshlik maktabi haqida gap ketganda qo'qonlik naqqosh ustazodalar nomlarini faxr bilan tilga olish mumkin. Ular Norqo'zi Nurmatov, Saidmahmud Norqo'ziev, Saidahmad Mahmudovlardir.

Mustaqilligimizning ilk yillarida o'zining 80 yoshlik to'ylarini nishonlab, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvonini olgan Saidahmad Mahmudovning ko'plab shogirtlari bor. Xorazm naqqoshlik maktabining ham o'ziga xos uslubi mavjud. Xorazm naqshlari ko'proq novda ishtirokidagi aylana spiralsimon murakkab ko'rinishdagi naqshlardan iborat.

Xorazm naqshlarini turlanishida uch va to'rt xil rang tuslari ishtirok etib, naqsh zaminlari havorang - yashil novdalar oq rangda pardozi esa qora rangda bo'ladi. Xorazm naqshlarida islamiy egiluvchan madohil shakllari ko'plab uchraydi. Xorazm naqqoshlik maktabi namoyondalari Abdulla Boltayev, Xo'janiyoz Saidniyozov, Eshmurodov Sofoev, aka-uka Vafo va Bolta Mirzaevlar, Ro'zimat Masharipov va boshqalardir.

Buxoro naqqoshlik maktabining ish uslublari naqsh kompozitsiyalarining mukammal va jozibadorligi, girih o'simliksimon, aralash naqsh namunalarining yorqin ranglarda ishlanishi bilan xarakterlidir. Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi.

Samarqand naqshlarida zangori - yashil rang tuslari ko'plab qo'llaniladi. Naqsh kompozitsiyalaridan o'simliksimon murakkab girih turlari alohida joziba kashf etadi. Samarqand naqsh turlarida yedirma - pardoz usullari keng qo'llaniladi. Bu naqqoshlik maktabning nomoyondalariga: usta Raxmon, usta Jamoliddin, usta Sharif, usta Aminjon, usta Mahmud va boshqalar kiradi.

Naqqoshlikda ko'plab material va asboblari ishlatiladi. Naqsh chizish uchun oq qog'oz, yumshoq qora qalam, chizg'ich va o'chirg'ich. Bo'yoq turlaridan guash, akvarel, moybo'yoqlari, suv idish va ranglarni qorish uchun idishchalar. Turli nomerlardagi mo'yqalamlar, pargor, shaffof qog'ozi, kumush va tilla hal kukuni, xoka, nina, duradgorlik yelimi, bo'r, alif, lak va hokazolar kerak bo'ladi. Ularning ishlatilishini va ahamiyatlari bilan tanishaylik. Naqshlarni bo'yash va ularga pardoz berishda bo'rsiq, suvsar, olmaxon kabi hayvonlarning yungidan tayyorlangan mayin mo'yqalamlar ishlatiladi. Mayda qil - qalamlarni uchi ingichkaligi sababli naqshdagi nozik joylarni ishlashda qulaylik tug'diradi. Naqqosh ustalar zarurat tug'ilsa yirikroq mo'yqalamlarni iplar bilan bo'lib bog'lagan holda kichiklashtirib ishlatadilar.

Naqqoshlik, naqshkorlik - amaliy san'atning qad. sohasi; naqsh yaratish kasbi. Naqqosh usta qog'ozga yoki matoga naqsh mujassamotini yoki naqsh taqsimini chizib oladi (ayniqsa, girih va islmiy kabi murakkab naqshlarda), axta, andoza tayyorlaydi.

Amaliy san'at ustalari 2 xil usulda bezak yaratadilar: naqqoshlar tayyorlagan axta, andoza yordamida hamda naqsh (gul) to'g'ridan-to'g'ri bezash jarayoni-daustalar tasavvurining mahsuli sifatida yaratiladi. Naqqoshlikda naqsh, bezakni malakali naqqosh ustalar chizib beradilar, bunday naqshlarni me'morlik, gilamchilik, kashtado'zlik, kandakorlik va boshqa dagi naqsh mujassamotlarida birday uchratish mumkin.

Naqsh yaratish ustadan did, mahoratdan tashqari qunt, uzoq mashq-malaka talab qiladi. Naqqoshlar o'tmishda xalq ustalarining eng bilimdon, iste'dodli qismini tashkil etgan, ular ustodlarda ta'lim olgan, turli fanlar (adabiyot, musiqa, tarix, kimyo, matematika)ni yaxshi bilgan.

O'rta Osiyo hududidagi me'moriy yodgorliklar, arxeologik qazilmalar Naqqoshlikning bu yerda qadimdan rivojlanganligini ko'rsatadi. Amaliy bezak san'ati turlari (kulollik, miskarlik, zargarlik, gilamchilik, kashtado'zlik, kandakorlik va boshqalar) hamda me'morlikning taraqqiyoti naqqoshlikning ham rivojini taqozo etdi. Qo'yqirilganhal'a, Tuproqhal'a, Ko'hna Urganch, qadimiy Termiz, Ayritom, Bolaliktepa, Varaxsha, Afrosiyob va boshqa joylardan topilgan turli xil uslubdagi naqsh namunalarining jozibadorligi ajdodlarning yuksak madaniyatidan darak beradi. Naqqoshlik, ayniqsa, o'rta asrlarda (XIX-XII, XIV-XV, XVIII-XIX-asrlar)da keng tarhaldi.

Kitobat san'atida qo'lyozmalarni mo'jaz asarlar bilan bezashda naqqoshlik, musavvirlik asosiy o'rin tutadi; me'morlikda naqshlarni qo'llash, ayniqsa, taraqqiy etib, o'z qonunqoidalari hamda uslublari, o'ziga xos ranglar uyg'unligiga va mustaqil mujassamotlariga ega bo'lgan.

O'zbekistonning turli viloyatlaridagi me'moriy yodgorliklar, idish, buyum, mehnat qurollaridagi naqshlarda umumiylik ko'zga tashlansada, Buxoro, Xiva, Farg'ona, Toshkent va boshqa joylarda shu yerlarning o'ziga xos naqsh uslublari vujudga kelgan. Naqqoshlik avloddan-avlodga o'tgan, shogirdlar ustozlaridan o'rgangan naqsh namunalarini iste'dodlari darajasida boyitib borganlar, naqqoshlikni rivojlantirganlar. O'zbekiston hududi (turli mintahalari)da o'ziga xos bo'lgan Naqqoshlik maktablari shakllangan.

Shunga ko'ra, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg'ona vodiysi, Toshkent naqqoshligi ayrim o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan Farqlanadi. XX - asr o'rtalaridan naqqoshlik bezak mujassamotlariga tasvirlar (me'moriy obidalar, kishilar portretlari va boshqalar) ham kiritila boshlandi. Jumladan, kandakori buyumlar bezagida me'moriy obidalar, chinni buyumlar bezagida esa atoqli kishilarning portretlari va boshqa o'z ifodasini topdi.

XX-asr 90-yillaridan naqqoshlik ustalari ijodiy markaz va uyushmalarga birlashgan holda ijod qilmoqda. «Usto» «Musavvir», «Hunarmand» ustalari ijodi diqqatga sazovor. Naqqoshlik keng taraqqiy etgan bo'lib, ustalar yangi qurilayotgan inshootlarda hamda madaniy yodgorliklarning ta'mirida faol ishtirok etmoqda. Bevosita ularning ishtirokida «Oqsaroy» qarorgohi, Oliy Majlis binosi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, «Turkiston» konsert zali, O'zbekiston konservatoriyasi binolari bezalgan. Usta naqqoshlardan M.To'rayev, A.Ilhomov, S.Mahmudov, Q.Shoislomov, H.Nuraliyev, S.Shukurov va boshqa naqqoshlik rivojiga katta hissa qo'shdilar. Naqqoshlik buyumlari bilan ustalar xorij ko'rgazmalarida qam faol qatnashadi. Malakali naqqosh ustalar qadimdan usta-shogird usulida tayyorlangan. Hozirgi kunda ham shu usulda naqqosh ustalar tayyorlash saqlangan, shuningdek, maxsus bilim yurtlari, kollejlarda, badiiy markazlarda naqqoshlik bo'yicha ham muta-xassislar tayyorlanadi.

Naqsh - arab tilidan olingan bo'lib, tasvir, gul, degan ma'noni, qism - taqsimlari muayyan tartibda bir maromda takrorlanishidan hosil bo'ladigan handasiy shakllar, o'simlik, qush, hayvon va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezak, gul (ashyolar, qurol, mato, mebel, kitob va b.) me'moriy (inshootlar ham ichki, ham). Turli narsalar tashqi bezaklar, nafis san'at asosan, amaliy san'at asarlarida keng qo'llanadi. Narsaning sirtini bezayotgan naqqoshlik uning tuzilishini yuzaga chiqaradi va uning badiiy sifatini oshiradi. Naqqoshlik ba'zan mavhum shakllardan tuziladi, ba'zan aniq mavzulardan uslublashtiriladi. Ishlanayotgan xom ashyosiga ko'ra, naqqoshlik ishlashning turli - tuman uslub va usullari mavjud: o'yma (ganch, yog'och, mis, tosh, marmar va boshqalar), bo'yama (qog'oz, mato, ganch, yog'och, sopol va boshqalar), chok yordamida tikma (kashtado'zlik, zardo'zlik va boshqalar), zarb qilib, quyib (zargarlik, miskarlik va boshqalar), to'qima (gilamchilik, to'qimachilik va boshqalar), qadama (inkrustatsiya, panjarasozlik va boshqalar) va boshqa.

Naqqoshlikning paydo bo'lishi, naqqoshlik tarixi insoniyatning badiiy madaniyati kabi qadimiydir. Arxeologik materiallar naqqoshlikning jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Metall, sopol buyum, idish, qurollar paleolit, neolit davrlarida oddiy handasiy shakllar qatorida o'simliksimon naqqoshliklar bilan ham bezatilgan. Naqqoshlik turli o'lkalar, turli xalqlarda geografik muhit, o'simlik va hayvonot dunyosi, madaniyati ta'sirida turlicha rivoj topgan. Shimol o'lkalari naqqoshliklarida archa, chorvadorlarda mol shoxi, dexdonlarda uzum bargi va g'ujumi, o'troq aholida gul, anor, bodom, qalampir tasvirlari ko'p uchraydi. Yevropada turli davrlarda xukmron bo'lgan badiiy uslublar barokko, gotika, klassitsizm va boshqalar naqqoshlikga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Uyg'onish davrida, ayniqsa, yuksak jozibadorlikka erishgan.

Naqqoshlik san'ati O'rta Osiyo madaniyati tarixida juda qadimiy bo'lib, o'ziga xos namunalari bilan ajralib turadi. Arxeologik topilmalar naqqoshlikning xilma - xil va rang - barang namunalaridan darak beradi. Me'moriy yodgorliklarda naqqoshlikning ancha mukammal, o'ziga xos va yuksak san'atkorlik bilan yaratilgan nusxalarini uchratish mumkin. Xalq amaliy san'atining har bir turida ayniqsa, kashtado'zlik, gilamchilik, o'ymakorlik, ganchkorlik, naqqoshlik, naqqoshlikning shakliy imkoniyatlari naqadar keng va boy ekanligi yaqqol kuzatiladi.

Naqqoshlik san'ati juda keng tarhalgan bo'lib, asosan, 2 turga bo'linadi: handasiy shakl va chiziqlardan iborat eng murakkab naqqoshlik turi - girih, keng tarhalgan o'simliksimon naqqoshlik - islamiy. Har bir naqqoshlikning o'z qonun-qoidalari bor: taqsim va bo'laklar aniq o'lchamda, uyg'un bo'lishi, ranglar did bilan tanlangan va o'zaro mutanosib bo'lishi lozim. Bu naqqosh ustadan katta mahorat, malaka talab qiladi. O'rta Osiyoda eng qadimiy naqqoshlik namunalari, asosan, me'moriy inshootlarda saqlangan; naqqoshlikning ajoyib namunalari ganch, yog'och va toshni o'yib, ba'zan bo'yab ishlangan.

Naqqoshlik san'ati keng taraqqiy etdi va jadal rivojlandi. Bino, buyum, idish, kiyim, qurollar aksariyat naqqoshlik bilan bezatildi; masjid, Madrasa, maqbaralarni xashamdor qilishda naqqoshlik muhim o'rin egalladi. Shu davrda me'morlikda g'ishtni turlicha halab naqqoshlik hosil qilish san'ati yuksak darajaga ko'tarildi.

Binolarning yog‘in tushmaydigan joylari ganch va yog‘och o‘ymakorligi, bo‘yama naqqoshlar bilan bezatildi. Jumladan, me‘moriy yodgorliklardan O‘zgandagi maqbaralar (interyer, devor, peshtoq, ravoqlar) g‘ishtin nafis naqshlangan.

XIV-XV-asrlarda koshinkoriy naqqoshliklar yaratildi (Ko‘hna Urganchdagi To‘rabekxonim ko‘shki, Samarqanddagi Shohizinda ansambli, Dilkusho ko‘shki - Ishratxona va boshqalar). Xiva, Buxoro, Qo‘qon xonliklari davrida xalq ustalari san‘ati ayniqsa shaharlarda o‘sdi, naqqoshlik, naqqoshlik qam yanada rivojlandi. Xudoyorxon o‘rdasi (Xiva), Sitorai Mohi Xosa (Buxoro), Toshhovli (Xiva) va boshqa binolar mohir ustalar tomonidan nafis naqqoshliklar bilan bezatildi. Bu esa O‘rta Osiyoda naqqoshlikning o‘ziga xos uslublari vujudga kelganligini ko‘rsatadi.



Buxoro naqqoshligi eng murakkab, mukammal va jozibador bo‘lib, ko‘p asrlik ijodiy mehnat an‘analari samarasidir; naqqoshlik bezak bo‘lish bilan birga binokorlikning ajralmas qismiga aylangan. Juda murakkab garihlar puxta o‘lcham bilan ishlangan, gul naqqoshliklari o‘ziga xosligi bilan (gul naqqoshlikda vaza, kosa, guldonlar uslublashtirilib, ularda gul butalari aks ettirilgan, yaproq, mevalar tasvirlari bir maromda berilishiga alohida e‘tibori bilan) ajralib turadi.

Xiva naqqoshlik (yulduzlar hosil qiluvchi girihlar orasida o'simliksimon gullarni mahorat bilan joylashtirilishi, barg shaklidagi bezaklarning ko'pligi, o'simliksimon tasvirlar zich, ko'p va turli-tumanligi bilan mashhur.

Farg'ona naqqoshligi Marg'ilon, Xo'jand, Qo'qon, Fargona, Namangan va boshqa shaharlarda vujudga kelgan uslublardan iborat. Me'moriy yodgorliklar (Qo'qondagi Modarixon daxmasi va Daxmai shohon), XIX - asrda yaratilgan naqsharda sodda rang-baranglik (sariq, qizil, yashil, qora, oq, ko'k, pushtirang), naqqoshlik qismlarining ancha jo'nligi ko'zga tashlanadi.

Farg'ona naqqoshlikining o'ziga xos jihatlari: bino devorlariga mehrobi namoyonlar ishlanib, ular hoshiya naqqoshlik bilan bir-biridan ajratiladi, hoshiyalar orasiga girih, qolgan qismlarga o'simliksimon gullar ishlanadi. Ularda Buxoro, Xiva naqqoshliklarining ta'siri seziladi. XIX - asr oxiri - XX - asr boshlaridagi naqqoshliklarda yevropa naqqoshlarining ham ta'siri bor. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida yaratilgan ro'zg'or buyumlari, asbob va qurollar, uy va inshootlarni naqqoshlik (bezak)siz tasavvur qilish qiyin. O'rta Osiyoda ishlangan bezakli buyumlar, matolar xalqaro bozorlarda ham qadrlangan. Turli o'lkalar bilan madaniy iqtisodiy alohalar naqqoshlikning rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

XX - asr boshqa sohalarda qatorida amaliy san'at an'alarining yangi rivojlanish davri bo'ldi. 30 - yillardan yirik jamoat va ma'muriy binolar qurilishi rivojlandi, badiiy buyumlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Alisher Navoiy teatri, Muhimiy teatri, O'zbekiston tarixi muzeyi, Xalqlar do'stligi saroyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, «Xotira» maydoni, Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi, Oliy Majlis, O'zbek milliy drama teatri, O'zbekiston konservatoriyasi binolarining turli texnika, usullar bilan ishlangan naqqoshliklar hisobiga kurkam qilingani qadimiy an'analarning tiklanganligi, yangi mazmun bilan boyib borayotganligiga yorqin dalildir. Kulollik, zardo'zlik, kashtado'zlik, gilamchilik, zargarlik, kandakorlik va boshqa sohalarda naqqoshlik bilan bezatilgan badiiy buyumlar turmushga fayz kiritadi. Ustalar yangi usullarni qo'llab, yangi mazmun bilan boyitilayotgan naqqoshliklar yaratmoqda.

Bu jarayonda naqqoshlardan M.To‘rayev, A.Ilhomov, S.Mahmudov, Q.Shoislomov, H.Nuraliyev, A.Asqarov, O.Fayzullayev, S.Shukurov va boshqa yirik ustalar shogirdlari bilan qatnashdilar.

Ular yaratgan bezaklarda «kundal», «mehrobi», «bodom», «buta», «chorgul», «shobarg», «oygul», «zanjira» naqqoshlik turlari ko‘p uchraydi. Ushbulardan ko‘rinadiki, O‘zbekiston mustaqilligidan keyin barcha san’atlar qatorida amaliy san’at turlari, shulardan naqqoshlik, naqqoshlik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi ham jadal rivojlanmoqda, ularda qad. unutilayotgan an’analar qayta tiklanayotgani, naqqoshlik turlari kengayotgani va islmiy naqqoshlikning bir necha turlari uyg‘unlashayotgani kuzatiladi.

NAQSH VA UNING TURLARI

Kashta tikish uchun kashta gul, rasm bo'lishi zarur. Naqsh- arabcha tasvir gul degan ma'noni anglatadi. Kashtado'zlik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi, qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Rangtasvir vositalar yordamida ishlangan, nur va soyalar hajmini keltirib chiqaradigan, shu bilan birga o'ylamay-netmay tabiatdan aynan ko'chirishga intilmagan rasmchini naturadan yaqinroq bo'lishi mumkin. Kashta gulini yaratishda naturaga qarab rasmni chizib oladi, keyin uni naqshga va turli naqshdor kompozitsiyaga aylantiriladi. Naqsh bilan amaliy san'at buyumlari bezatiladi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo'lib, o'sha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan tikilishiga butunlay bog'liq bo'ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (guli va hokazo) xarakterli belgilari tanlanadi. O'simlik, qush motivlarini aniq ko'rsatishga intilmay, faqat asosiy chiziqlarigina bo'rttirib kontur qilib chiziladi.

Biror buyumni tikishdan oldin uning badiiy yechimini o'ylab ko'rish, bezakning undagi ayrim bo'laklarining buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozitsiya xarakteri ko'proq ritmga-naqshdagi alohida elementlarga bog'liq bo'lib, bu kompozitsiyaning ifodali bo'lishiga aniq idrok etilishiga yordam beradi. Kompozitsiya (mujassamot) - lotincha "Kompositio" so'zidan olingan bo'lib, to'qish, tuzish, bir-biriga solishtirish, naqshni g'oyasi, xarakteri va vazifasiga, muvofiq uyg'un hamda mutanosib joylashtirish degan ma'noni anglatadi. Ritm-naqsh kompozitsiyasining ma'lum bir qismi ma'lum bir masofada doimiy ravishda bir tekisda takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go'zal ko'rinishini ta'minlaydi.

Simmetriya-grekcha soʻzdan olingan boʻlib, oʻlchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi. Bezakning simmetrik tuzilishi. Assimetriya-kompozitsiyada simmetrik qonun-qoidalarining muvozanatini buzilishidir.

Stilizatsiya-tabiatdagi oʻsimlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va uzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir. Naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va hokazolar) dan shuningdek, toʻlqinsimon, siniq chiziqlar, spirallardan, oʻsimliklar (barglar, shoxlar, daraxtlar) dan, jonivorlar dunyosi (hashoratlar, qushlar, baliqlar, hayvonlar) tasviridan foydalanish mumkin. Naqshda geometrik shakllar bilan tabiatdagi oʻsimliklar qoʻshilgan boʻladi.

Kashta bezaklariga simmetrik, yaʼni asosiy chiziqlar, shakllar, ranglarning gorizontal yoki vertikal simmetriya oʻqiga nisbatan qonuniy joylanishi xarakterlidir. Gul bitta, shuningdek, ikkita yoki bir necha simmetriya oʻqiga nisbatan tuzilishi mumkin.



Bezakning simmetrik tuzilishi

Kashtada gul ko'pincha yopiq yuzada, ya'ni qandaydir geometrik shakl bilan chegaralangan yuzada tuziladi. Bu kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidagi dasturxon, so'zana, palak, zardevor, kirpich, choyshab, belbog', yostiq ustiga yopiladigan jildi, dastro'mol va hokazolar bo'lishi mumkin. Buyum shakliga va kashtado'zning mo'ljaliga qarab kashta gulning shakli va joy o'zgarishi, masalan, dasturxon, dastro'mollarning burchaklariga yoki o'rtasiga kashta tikilishi mumkin. Burchakdagi kashta gullarining tuzilishi har xil bo'ladi.

Bezakda bargli va gulli novdalar burchakdan chap va o'ng tomonga yo'nalgan. Hamma bezaklarda aytilgan o'simliklarga o'xshashlik saqlanib, gul va barglari yangi shaklga kiradi. Ularda tabiatda uchraydigan kamchiliklar: burishgan yoki singan barglar, buralgan gulbarglar, singan yoki zichlashgan shoxchalar yo'q. Bunday novdani ko'rish uchun barglarni surib tekislash, ulardan bir qismini uzib tashlash kerak. Rassom ham kashta bezagini yaratishda xuddi shunday qiladi. Gul va barglarning aniq shakllari rassom o'ylaganicha itoat etib, yangicha yo'l yoki yuzani to'ldiradi.

Bunday bezaklarda gullar, barglar va mevalar bir-biriga halaqit bermaydi, bir-birini ustiga o'tmaydi. Buyumni bezak elementlari shunday joylashtiriladiki, ular orasidagi bo'sh joylari bir tekisda taqsimlanib, bezakning bir qismi bo'lib qoladi. Kashta uchun xalq orasida tarqalgan bezaklar va rassomlar yaratgan rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Rasmlarning ba'zi qismlarini ixtiyoriy ravishda kompozitsiyalash ham mumkin, lekin tabiatni kuzatib, bezaklarni buyum yuzasiga joylashtirishni ham o'ylab topish yanada qiziqarliroqdir. Oddiy naqsh namunalarini o'rganishda, o'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan naqsh elementlarini yoddan chizish, stilizatsiya orhali yangi naqsh elementlarini qosil qilib ular ishtirokida kompozitsiyalar tuzish maqsadga muvofiqdir. "Har bir insonning o'z ismi bo'lganidek, qar bir naqshning o'ziga xos nomlari bo'ladi. Naqshning nomlanishi uning xarakterli o'rni bilan belgilanadi. Har bir naqsh ma'lum qonuniyatlar asosida tuziladi va chiziladi. Naqshlarning o'ziga xos nomlari va ma'nosi bo'ladi.

Har handay naqsh oddiy elementlarning ma'lum qoya, xarakter va vazifasiga muvofiq joylashtirilishi, o'zaro uyqunligi va muttanosibligi bilan qosil bo'ladi. Bu qisqacha kompozitsiya (mujassamot) deyiladi". Shuningdek naqsh chizishni barcha qonuniyatlarini yaxshi o'zlashtirib borishda, mavjud yo'l ichidagi o'nta oddiy naqsh namunasini aslidek yoddan chizib o'rganish kerak bo'ladi.

Oddiydan murakkablashib boruvchi mavjud o'nta qoshiyasimon naqsh namunalarini taniqli naqqosh ustozlarimiz tomonidan tuzilib, nomlangan deyishadi. Aytishlaricha 1934 yili Toshkentda ochilgan Badiiy o'quv ishlab chiqarish kombinatining naqqoshlik bo'limi o'qituvchisi usta Olimjon Qosimjonov va bir - oz keyinroq, Jalil Xakimovlar, boshlanqich dars mashqulotlarni to'rtta naqsh namunasi yordamida o'rgatar ekanlar. Ayrim taxminlarga ko'ra bu naqsh namunalarini yuqorida nomlari zikr etilgan ustalarning o'zlari yaratganlar. Keyinchalik usta Jalil Xakimovning, birinchi shogirdlaridan bo'lmish mohir pedagog naqqosh usta Mahmud To'raev oddiy naqsh namunalarining yana qo'shimcha oltita nusxasini yaratib, nomlagan.

«**Naqsh**» so'zi arab tilidan olingan bo'lib, «tasvir», «gul» ma'nosini anglatadi. Naqsh - muayyan tartibda bir maromda takrorlanishdan hosil bo'ladigan handasiy shakllar, o'simlik, qush, hayvon va boshqa tasvirlardan tarkib topgan bezak. Xom-ashyoga qarab naqshning o'yma, bo'yama, chok yordamida, zarb qilib, quyma, to'qima, qadama usullari qo'llaniladi.

Har bir naqshning taqsim va bo'laklari aniq o'lchamda, bir - biriga uyg'un bo'lishi, ranglar did bilan tanlanishi, o'zaro mutanosib yaratilishi lozim. Yurtimizda naqshlarning ikki: girih va islmiy turi keng tarqalgan. Girih murakkab geometrik naqsh bo'lib, u asosan, masjid, madrasa peshtoqlari va kitoblarga bezak berishda qo'llaniladi.

Naqshlar uchburchak, to'rtburchak, aylana va yoy shaklidan iborat. Uni tahlil etish, chizish, yangi turlarini yaratish maxsus tayyorgarlik va mahoratni talab qiladi. Girih naqshlar yaratilgan davrda oddiy bo'lib, keyinchalik takomillashib, murakkablashib borgan. Biroq qanchalik murakkablashgan bo'lmasin, uning qulay tomoni, ya'ni takrorlanuvchi ma'lum qismlari bor.



Shu bois tasvir takrorlangan sari go'zal, jozibador bo'ladi. Shakllariga qarab, girih naqshlari turlicha nomlanadi. Ko'rinishi 5 va 10 qirrali yulduz bo'lsa, «5 va 10 qirrali girih», pargar yordamida chizilgan egri chiziqlardan yasalsa «pargari girih» deyiladi. Bunday o'ziga xos zeb shaklining 300 dan ziyod turi naqqosh, girihshunos usta Z.Bositxonov tomonidan tiklangan.

Yurtimizdagi me'moriy obidalarda, xususan, Samarqand viloyatidagi Arabota maqbarasi, Karmana tumanidagi Mirsaid Bahrom, Navoiy viloyatidagi Raboti Malik karvonsaroyi, Xiva tumanidagi Juma masjid, Buxorodagi Minorai Kalon, Registon maydonidagi Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari, Shohizinda ansamblidagi ko'pgina binolar, Zangiota maqbarasi bezaklarida girih naqshidan samarali foydalanilgan.

XX asrda usta Shirin Murodov, Shamsiddin o'afurov, Mahmud Usmonov binolarni bezashda qo'llagan girihlar o'zining oddiy va go'zalligi, mukammalligi bilan ajralib turadi. Bu naqsh namunalarini poytaxtimizdagi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat akademik katta teatri, Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatri binolari, O'zbekiston tarixi davlat muzeyida ham ko'rish mumkin. Islimiy naqsh turi ham keng tarqalgan. Uning shakli o'simliksimon bo'lib, asosini tanob, band, barg, butalar tashqil etadi. U bir-biriga uzluksiz ulanib, o'ralib ketadigan chirmoviqsimon naqshlarning takrorlanishidan tarkib topadi. Shuning uchun ba'zan ustalar uni o'rama yoki o'simliksimon naqsh deb ham atashadi.

Islimiyning xillari ko'p bo'lib, qaysi shakl bilan to'ldirilsa, shu shakl nomi bilan ataladi: islimiy barg, bargak, bofta, gul, zanjira, madohil va boshqalar. Islimiy me'morchilik bilan birga, ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, zardo'zlik, kulolchilik, gilamchilik, kashtado'zlikda qo'llaniladi. Bu uslub O'rta Osiyo, Yaqin Sharq, Hindiston, Eron, Turkiya, Afg'oniston ustalari tomonidan keng qo'llanilgan. Uning noyob namunalarini Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi gumbazi osti bag'allari va Registon ansamblida uchratish mumkin.

Barglar islimiy naqsh elementlari sirasiga kirganligi sababli nozik, nafis ko'rinishlarda tasvirlanadi. Naqqoshlar tol, anor, xurmo, bodom, sambit, xina atirgul, uzum va shu kabilar barglarini stilizatsiyalashtirib, naqsh kompozitsiyalarini tuzishda qadimdan foydalanib kelganlar. Barglar oddiy va murakkab turlarga bo'linadi: Oddiy barglar-bodom bargi, arra tishli va to'lqinsimon barg ko'rinishlarida uchraydi.

Gullar - islimiy naqsh elementi bo'lib, naqshlarga targ'il pardozi berilganidan so'ng yanada ko'rk va xusn bag'ishlaydi. Gul elementlari asosan naqsh shakllarining markaziy qismlariga joylashtiriladi. Gullarning qam beqisob turlari mavjud bo'lib, o'ziga xos nomlar bilan ataladi. Gul turlariga oddiy va murakkab ko'rinishdagi oygul, lola, paxtagul, chinnigul, pistagul, ko'vachagul, karnaygul, safsargul, atirgul, nargizgul va boshqa gul turlari kiradi.

Novda - o'simliksimon naqsh elementi sirasiga kiradi. U gul, barg va quncha kabi boshqa elementlarini o'zaro bog'lab biriktirib to'ldiradi. Namoyon ruta, morpech, munabbat turunj va turli murakkab naqsh namunalaridan novda elementlari yakka va qo'sh bandlarda uchraydi. Bog'lam va sirtmoqlar islimiy naqsh elementlari. Novda va ramka shakllariga xos boqlovchi oddiy arqon kurtak va sirtmoq bog'lami turlarini eslatadi.

Tanob - naqsh namunalaridagi asosiy shakl yo'llarini yasaydi. Bunday shakl nomlari mehrob, modoqil, bodom, qalampir, gardish va shu kabilar bilan ataladi. Tanob bafta, shkufta, bog'lam elementlari bilan bog'lanadi.

Marg'ula elementi ayrim novda va tanob shakllarining tugallanishini bildiruvchi qo'sh chiziqli gajak, marg'ula naqsh kompozitsiyalarida kurtak elementlari bilan birin-ketin goqida o'rindosh sifatida qam uchraydi. Kurtak elementi asosan bodom, qalampir, tirnoq ko'rinishlariga ega. Marg'ula va kurtak elementlari novda, tanob, yasovchi ko'rinishlarini boyitadi.

Madohil - islimiy naqsh elementi madohil lola, tumor, uchbarg ko'rinishlarini eslatuvchi shakllar misolida uchraydi. Madohil mehrob namoyon naqshlarining yuqori qismlariga xos elementdir.

Gajak va jingalak-islimiy naqsh elementi. Tabiatda uchraydigan uzum, karnaygul, pechak o't novdalarini stilizatsiyalashtirilgan holdagi ko'rinishlaridir. Gajak va jingalak elementlari namoyon, guldasta va islimiy naqsh birikmalarida uchraydi. Bofta islimiy va murakkab naqshlar elementi. Naqshdagi patnis tanob, mehrob, savat ko'rinishigagi ramkalarni yurak shaklidagi elementlari bilan bog'laydi. Bafta naqshlarda boqlovchi elementlar tarkibiga kiradi. Bofta islimiy ruta va girih qoshiya naqshlarining qam o'ziga xos elementlaridan biridir.

Shkufta - islimiy naqsh elementi, qisqacha shkift deb qam ataladi. Shkufta asosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak-gajak ko'rinishlarida o'zaro bog'laydi. Naqshlarda shkufta va bafta elementlari to'q ranglarda bo'ladi. Naqqosh tabiiy shakllarni stillashtirib - qayta ishlar ekan u element va rang tuslariga oid ramziylik falsafasini qam keng yoritib berishga intiladi.

“Ota - bobolarimiz qadimiy obidalarini nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orhali o'z orzu - umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ustalar inson ruhiyatini juda chuqur va qar taraflama o'rganib, uylarini ajoyib naqshu nigorlar bilan bezaganlar. Naqshlardagi mazmunlarni anglash uchun naqshning har bir elementi va ranglarini ramziy alifbosini o'rganish kerak. Ramz arabcha “ishora qilmoq” so'zidan olingan. Ramziylik olam va odam ruhiyati, tabiat, voqelik, hayot falsafasini jonli chiziqlar, ranglar orhali tasvirlashdir.

Naqsh elementlarining ramziy ma'nolari.

Teng tomonli uchburchak - tik turgan holati hayotning boshlanishi ramzi. Teskari turgan holati esa hayotning oxirini bildiradi.

To'g'ri to'rtburchak – ishonch ramzi.

Romb - ayol, ya'ni yor ramzi, serfarzandlik.

Yarim aylana – baxt ramzi.

Quyosh - hayot ramzi.

Bulut olov - g'oliblik ramzi.

Bodom - baxt-iqbol ramzi.

Barg - bahorgi uyg'onish.

Zirk guli (gulsafsar) - osoyishtalik va umr uzoqligi ramzi.

Anor - ezgulik, to'qchilik ramzi.

Oygul - baxt-iqbol ramzi.

Olma - munabbat ramzi.

Isiriq - yomon ko'zdan asrash ramzi.

Atirgul - go'zallik ramzi.

Sher - mardlik, adolat va kuchlilik ramzi.

Bulbul – sadoqat ramzi.

Xumo - baxt keltiruvchi qush.

Baliq - mashxurlik ramzi.

Oq kabutar – tinchlik ramzi.

Oxu - go'zallik, noziklik ramzi.

Aylana - olam, baxt, quyosh odamlarni yovuz niyatidan qaytarish ramzi.

Besh kirrali yulduz - xayotning kiskaligi, besh kunlik dunyo.



TABIIY O'SIMLIK TURLARINI NAQSH ELEMENTLARI XOLATIDA CHIZISH. STILIZASIYA

Naqqoshlik san'atining ildizi juda qadim o'tmishimizga borib taqaladi. Insoniyat o'zi uchun zarur bo'lgan jamiki buyumlarni badiiy bezab, takomillashtirib kelgan. Oddiy ro'zg'or buyumlaridan tortib, kiyim-kechak, kitob, bino bezaklari hamma-hammasi naqsh elementlari yordamida bezatiladi. Xalq amaliy san'atida bezak elementlari tabiatda uchrovchi o'simlik dunyosi, gul, novda, barg va hayvonlar tasvirini eng sodda ko'rinishlarida aks ettiriladi.

Ma'lumki xar bir naqsh namunasi o'ziga xos naqsh elementlarini yigindisidan iborat. Stilizastiya asosan o'simlik va hayvonot dunyosidan olingan turli shakllar masalan, butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, mevalar va shu kabilarning tabiiy shakllarini qayta ishlash demakdir. Bunda tanlangan shaklni naqsh kompozistiyasi tarkibiga qo'shish mumkin bo'lgan bezak shakliga keltiriladi. Bunda o'quvchi butun bir yaxlit predmetning tashqi ko'rinishlarini bir nechta badiiy chiziqlar yordamida aniq lo'nda qilib tasvirlashni o'rganadi.

Xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jami naqshlar tabiat hamda voqelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan. O'simliklar faqat bir tomonga qarab o'sadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyuladi, lekin novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yunalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshda o'z aksini topgan. Usta chizadigan naqsh shunchaki qog'oz betini to'ldirish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iboratdir.

Badiiy naqsh ishlash jarayonida o'quvchilar quyidagilarni puxta o'zlashtirib olishlari zarur:

- atrof muxitdagi, tabiatda mavjud bo'lgan tabiiy shakllarni qayta ishlash, ya'ni stilizastiyalash yullarini bilishlari, undan samarali foydalana olishlari kerak.

- berilgan naqsh elementlari yoki namuna asosida yangi naqsh kompozistiyasini tuza olishlari.

- mustaqil ravishda yangi naqsh kompozistiyasini tuza oladigan bo'lishlari.

Naqsh elementlari bilan tanishtiruv mashg'ulotlarida o'qituvchi o'quvchilarni tabiat qo'yniga sayohatga olib chiqadi va ular mashg'ulotlarda o'rgangan nazariy hamda amaliy bilim malakalari asosida, o'simliklar, hayvonot dunyosini kuzatadilar va "stilizastiyalashtirish" orqali ularning badiiy tasvirlarini, shakllarini hosil qilish bilan bevosita shug'ullanadilar. O'quvchilarga maxsus ketma-ketlik asosida tuzilgan rangli yoki oq-qora foto-suratlardan foydalanish orqali tushunchalar berish xam yaxshi natija beradi. Stilizastiya tabiatda uchraydigan o'simliklar, hayvonot dunyosini, uy-ro'zg'or buyumlarini tabiiy ko'rinishdan ancha soddalashtirib, eng ixcham ko'rinishlarda tasvirlash demakdir. Naqsh chizishni o'rganuvchilar ana shu usulni batafsil tushungan holda egallab olishlari lozim. Chunki ko'pgina naqsh kompozistiyalari ana shu tarzda qayta ishlangan turli-tuman shakllar, tasvirlar yordamida qilinadi.

Naqqoshlik mashg'ulotlari jarayonida naqsh elementlarini chizish va ularni xosil qilish tartiblari yullari va usullari o'zlashtirib boriladi. Odatda badiiy naqshlar chizishda ko'proq barg tasvirlaridan foydalaniladi. Bunda barg islimiy naqsh elementlari sirasiga kirganligi sababli nozik, nafis ko'rinishlarda tasvirlanadi. Naqqoshlar tol, anor, xurmo, bodom, sambit, xina, atirgul, uzumlar va shu kabilar barglarini stilizastiyalashtirib, naqsh kompozistiyasini tuzishda qadimdan foydalanib kelganlar.

Gullar - islimiy naqsh elementi bo'lib, naqshlarga targ'il pardozi berilganidan so'ng yanada ko'rk va husn bag'ishlaydi. Gul elementlari asosan naqsh shakllarining markaziy qismlariga joylashtiriladi. Gullarning ham bexisob turlari mavjud bo'lib, o'ziga xos nomlar bilan ataladi. Gul turlariga oddiy va murakkab ko'rinishdagi oygul, lola, paxtagul, chinnigul, pistagul, kuvachagul, karnaygul, safsargul, atirgul, nargizagul va boshka gul turlari kiradi.

Novda - o'simliksimon naqsh elementi sirasiga kiradi. Gul, barg, meva va boshka elementlarini o'zaro bog'lab biriktirib tuldiradi.

Namoyon ruta, morpech, munabbat, turunj va turli murakkab naqsh kompozistiyalarida novda elementlari yakka va qush bandlarda uchraydi. Tanob naqsh namunalaridagi asosiy shakl yullarini yasaydi. Bunday shakl nomlari mexrob, medoxil qalampir, gardish va shu kabilar bilan ataladi.

Madoxil - islimiy naqsh elementi. Madoxil lola, tumor, uchburchak ko'rinishini eslatuvchi shakllar misolida uchraydi.

Shkufta - islimiy naqsh elementi. Kiskacha shkuft deb xam ataladi. Shkufta asosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak - gajak ko'rinishlarida o'zaro bog'laydi.

Ramziy naqshlar - kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshkalarining stillashtirib tasvirlangan elementlaridan tashqil topadi. Ota-bobolarimizning qadimiy obidalarini nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavk bilan bir katorda ular orqali uz orzu umidlarini, muxabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh, ota-bobolarimiz inson ruxiyatini juda chukur va xar taraflama o'rganib ularni ajoyib naqshu nigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, osoyishtalik ogushida bo'lishi, uzok umr kurishni donishmand bobolar asrlar davomida xayotiy tajribalar asosida ilgaganlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning xar bir elementi va ranglarining ramziy alifbosini bilmok kerak bo'lgan.

Naqqoshlikda ramz - arabcha "ishora qilmoq" so'zidan olingan, tabiatni, voqelikni, xayotdagi kuvonch va tashvishlarni, dust va dushmanlarni, yaxshilik va yomonlikni naqsh elementlarini, jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir. Endi uzbek milliy naqsh tili alifbosi bilan tanishib chiqamiz. Ular quyidagilardan iboratdir:

Mustaqil naqsh kompozistiyasini tuzishda, chizilajak naqsh kompozistiyasini shakl, o'lcham va taqsimlarini mo'ljalga olish zarur. Kompozistiyaning yakka yoki qo'sh banddan iborat bo'lishligi nazarda tutilgan holda tanob (yasovchi) elementi shakllarini joylashtirish zarur. Kompozistiyaga novda, barg, gul va boshqa naqsh elementlarini kiritib mukammallashtirish zarur. Davriy takrorlanish, naqsh bandini bofta, shkufta elementlari bilan bog'lab boyitish, kompozistiyaning asosiy shaklini umumlashtirib naqshni nomlash ham kerak.

Kompozistiyani ma'no va maqsadini hisobga olgan holda rang tuslarini aniqlash va simmetrik joylashuv va ranglar mutanosibligini saqlash kerak. Yo'l, aylana, kvadrat shakllari uchun chiziladigan naqsh kompozistiyalari ham ixtiyoriy ravishda mavjud naqsh elementlari birikmalaridan tuziladi.



Mustaqil naqsh to'qishni boshlashda o'quvchi ikki, uch va undan ortiq elementlar yordamida eng sodda naqsh kompozistiyalarinilarini tuzishi mumkin. Bunda ixtiyoriy tanob shakli chiziladi va gul, novda, barg elementlari yordamida to'ldiriladi. Mavjud kompozistiyani shakl yoki gul elementlari nomlari yordamida nomlash mumkin. Yo'l, aylana, kvadratga chiziladigan naqsh kompozistiyalarini ham ixtiyoriy ravishda mavjud naqsh elementlari birikmasidan tuziladi. Har qanday naqsh kompozistiyalari pishiq va chiroyli chizilishiga ahamiyat berilishi kerak. Elementlarning o'zaro tartibli joylashuvi naqshning jozibasini yanada oshiradi. Mustaqil naqsh kompozistiyasini tuzishda ham xalq ustalari ijodini kuzatish, xalq amaliy san'ati muzeyiga borish va nusxa ko'chirish yaxshi samara beradi.

MILLIY KASHTACHILIK TARIXIDAN

Azaldan sharq mamlakatlarida, xususan Markaziy Osiyoda go'zallikka intilish, yashash joylari, xonalarga, oddiy buyumlar va kiyimlarga ham sayqal berib bezatish an'anaviy odat bo'lgan. Bu jarayon bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, san'at darajasiga ko'tarilgan. Ayollarimiz va qizlarimiz milliy kiyimlar do'konlaridan kashtachilik va zardo'zlik usulida bezalgan kiyim va buyumlarni harid qilishlari mumkin. Lekin, doim ham ko'ngildagidek narsani harid qilish imkoni bo'lavermaydi. Bu masalani ijobiy hal qilishda ayollarimizni bichish-tikish ishidan habardor bo'lishlari juda qo'l keladi. Lekin, kiyim va buyumlarni kashtachilik va zardo'zlik usullarida bezashni uddalash har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. O'ylaymizki, har bir xonadonda chevar ayol-qizlarning bo'lishi oila byudjetiga va ma'naviy hayotiga katta yordam bo'ladi.

Milliy kashtachilik xalq amaliy san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, bu hunar ma'lum tarixiy davr-larda kishilarning o'z uyi, turmushini chiroyli qilish istagi tufayli yuzaga kelgan. O'sha paytlarda ham ayollar hozirgidek go'zallikka intiluvchi, har bir rangning tovlanishidan bir kashfiyot yaratuvchi bo'lishgan. Ular uylarida o'tirib, ozodalik va bola tarbiyasi bilan shug'ullanishgan. Bo'sh vaqtlarida esa, matoga rangli iplar yordamida jilo beruvchi gullar tikishgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan.

Mohir chevar ayollarimiz qo'llari bilan tikilgan so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshablar dunyo mamlakatlari, jumladan, Germaniya, Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Franstiya kabi chet davlatlarda ham mashhur. Mamlakatimizga kelgan sayyohlar bu buyumlardan olmasdan qaytmay-dilar. Chunki bu buyumlarda Tojikistonning madaniyati mujassam. Bu sayyohlar mazkur hunarmandchilik namunalarini xonadonlarida sayohatdan esdalik sifatida e'zozlab saqlashadi. Qadimgi davrlardan hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda.

Qadim-dayoq kashtachilik hunari san'at darajasiga ko'tarilgan bo'lib, buni badiiy kashtachilik deb ham yuritish odat tusiga kirgan.

Kashtachilikning qadimiy-ligini Markaziy Osiyo davlatlari hududida o'tkazilgan arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlaydi. Kashtachilik san'atining eng qadimiy namunalari saqlanmagan bo'lsa-da, XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Keyinchalik XIX asrda kashta tikish mashinasining kashf etilishi bilan chevarlar ham uzoq muddatda bitkaziladigan bitta kashtaning o'rniga bir nechta kashta tikishni ma'qul ko'rishgan va shu tarzda qo'lda tikiladigan kashtalarga e'tibor kamaygan. Shunday bo'lishiga qaramay, xalqimiz orasida kashtachilikning ko'pgina turlarini tikish hunari hanuzgacha saqlangan. Aytish joizki, kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi.

Tojik kashtachiligida chiroyli gullar, doirasimon, gul shoxchalari, bulbul, aylanma yo'lli naqshlardan ko'p foydalanilgani holda, o'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'proq aks ettiriladi. Rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi.



Qozoq va qirg'iz kashtachiligi bir-biriga yaqinroq bo'lib, ularda gul, geometrik shakllar bilan bir qatorda ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar turli ranglarda tasvirlanadi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, tojik xalqida ham qadimiy an'analarga ko'ra, tojik qizlari ham turmushga uzatilayotganda kashtachilik buyumlari ularga sep tarzida berilgan. Kelinchakning kelinlik liboslari ham boshidagi ro'moli, paranjisi, ko'ylagi, nimchasi hatto oyoq kiyimlari ham chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Kelinchakning uyidagi ko'rpa-to'shak, ko'rpa ustiga tashlanadigan mato (ro'yjo), sholcha, gilam, supra va boshqa ro'zg'or buyumlari ham aynan yuqoridagidek naqshu nigor bilan bezatilgan. Kelinchakni uzatiladigan uyga olib boradigan ot va arava ham xuddi shunday yasatilgan.

Eng ajoyibi shundaki, bo'lajak kelinchaklar mana shu seplaridagi har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim bo'lgan. To'y kuni kuyovning uyiga ilib qo'yilgan buyumlarga qarab, kelinning qanchalidik chevar ekanligiga baho berishgan. Shuning uchun qizlarga 7-9 yoshidan boshlab kashta tikishga o'rgatishgan. Ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlashgan.

Chevar kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra, go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa, shunchalik qimmatga baholangan.

Kashtachilik - kashta tikish kasbi, amaliy san'atning qadimiy soxalaridan biri bo'lib kelgan. Arxeologik topilmalar kashtachilikning deyarli barcha xalqlarda qadiymiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muxit bilan bog'liq xolda xar bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb xunar turlari bilan birga, ularni tasiri bilan rivoj topganini ko'rsatadi. Kashtachilikni paydo bo'lishi teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va choklarni yuzaga kelishi bilan bug'liq. Davrlar mobaynida toshlardan suyaklardan bigizlarga metal begizlardan o'tish bilan, to'qish, shuningdek mato to'qish bo'yash va boshqa ishlar bilan bog'liq.



Kashtachilik taraqiyotni Qadimgi Osiyo, Evropa, Amerika, madaniy yodgorliklari adabiy manba'lardagi kashtalar tasvirida, shuningdek, saqlanib qolgan kashtachilik namunalardan kuzatish mumkin. Kashtachilik maxsulotining eng qadimiy nosxalari saqlanmagan. Kashtachilik rivojlangan xalqlarda unga tasviriy san'atni tasiri katta bo'lgan. Masalan: XI asrga oid ingliz kashtalarida jang lavxalari aks ettirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasi ixtiro etilgach, sanoati rivoj topgan mamlakatlarda kashtachilik koronalar vujudga kela boshladi. Ishchilarni yo'lga qo'yilishi an'anaviy kashtachilikni inqirozga uchratdi. Kashtachilikdagi mavjud an'analar susayib ketdi, arzon boxo mashina kashtalari katta mahorat va ko'p mehnat talab qiladigan qo'l kashtalarini siqib chiqardi.

BUXORO VA NUROTA

KASHTACHILIK MAKTABLARI

Kashtachilik - O'zbekiston amaliy bezak san'ati turlari orasida o'zining qadimiy an'alariga ega bo'lgan san'at turi hisoblanib O'rta Osiyoning yirik savdo hunarmandchilik markazlari va qishloqlarida keng tarqalgan. San'atning ushbu turi o'zining poetik rang - barangligining saqlab qolishi bilan birga xalq orasida qadrlanib, o'z mohiyatini yo'qotmadi. Kashtachilik asosan 6 ta hududiy guruhlariga, ya'ni maktablarga bo'linadi. Jumladan, Nurota, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent hamda Farg'ona kashtachiligi maktablaridir.

Kashtachilikning yirik markazlaridan biri sanalgan Nurota asrlar mobaynida kashtalarning mukammalligi, aniq ifodaliligi, tasvir aniqligi, o'simlik naqshlarining serjilvaligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. XIX asrda Nurota kashtalari gulli guldastalar bilan bezatilib matoning oq foniga tig'iz to'ldirilmagan. Nurota kashtachiligi o'zining gullarning serjiloligi Kompozistiyaning bunday turi Nurotada "Chor shohu yak moh" - "4 ta shohu bitta oy" degan ma'noni anglatadi. Shu turdagi so'zanalarga XIX asrning o'rtalarida Nurota kashtachiligi tomonidan yaratilgan, hozirgi kunda esa O'zbekiston Davlat San'at muzeyida saqlanib kelinayotgan ajoyib so'zana o'zgacha engilligi va gulli naqshlarning serjilvaligi bilan ajralib turadi.

So'zana ornamentining ayrim joylarida guldastali guldonlar hamda guldastaning o'rtasida anor shaklini ko'rishimiz mumkin. Mallarang, tillarang, havorang, pushti, nofarmon och yashil ranglar bir - birlari bilan uyg'unlashib, so'zanaga o'zgacha bag'ridillik baxsh etadi. Naqshlari romb shaklida tuzilgan hamda tishli barglar bilan bezatilgan.

("Tobadoni" - katakli, panjarali) so'zanalar ham Nurota kashtachiligining yana bir turi hisoblanadi. Uning kataklari shoxli barglar, shoxli gullar va kosagullar, hamda qushlar va hayvonlarning shakli bilan to'ldirilgan. Shunday so'zanalar ham borki, ular mato fondidan ayrim gulli motivlar shaxmat tarzida joylashgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Nurota kashtachiligida keskin pasayishi seziladi. Gulli motivlar detallarning rang - barangligini yo'qotib, bir xil doiralarga aylanib qoladi.

Nurota kashtalari asosan "bosma" uslubi bilan tikiladi va naqshlarning cheti zanjirsimon uslub bilan aylantiriladi. Kashta ranglari och ranglar bilan tikilgan. Nurota kashtachiligida quyidagi kashta turlari va badiiy buyumlar tikiladi: so'zana, nimso'zana, takiyapo'sh, joynamoz, joypo'sh, zardevor, gulko'rik, dastorpech, belbog', qo'lro'mol, yostiq, oynaxalta, choyxalta, choyshab. Kashta asosan bo'z, chit, satin, shoyi, baxmal movutga tikiladi. Iplari ipakdan yigirilib, bo'yoqlari tabiiy o'simliklardan olinadi. Lekin hozirgi kunda sun'iy toladan yigirilgan va kimyoviy bo'yoqlar bilan bo'yalgan iplar kashtachilikda ishlatilmoqda.

Nurota kashtalarini engil, yorqin tonlar: qum, oltin, havorang, malina, pushti, och ko'k roangli iplari bilan tikilgan. Kashtachilik san'atining qadimgi maktablaridan bo'lmish Buxoro viloyatining milliy kashtachilik, san'atini o'ziga xos xususiyatini, tabiiy bo'yoqlarini qo'llanilishi texnologiyasi va bezaklarining qadimiy nusxalarini tikilishi, shu kunda xalqimiz diqqat e'tiborini o'ziga tortdi. Buxoro kashtachilik san'ati bilan tanishish, uni o'rganish yoki avlodga etkazish kerak.

Buxoro kashtalarining o'ziga xos belgilaridan biri ularda "yo'rma" choki mahorat bilan qo'llanilishida va havo rang, gul rang, binafsha rang, pushti va och sariq rang, qizil malina va ko'k ranglar bilan uyg'unlashidadir. Buxoro kashtalarida "yo'rma" chokdan tashqari, kompozistiyasi, tuzilishi va gullarni ham juda xilma - xildir. Mato yuziga bir tekis joylashgan ingichka shoxdagi gullar shoxlar bilan o'ralgan yo'rma do'zi qilinganligi bilan ajralib turadi. Buxoro maktabida esa, ko'proq igna bilan birga yo'rma choki bajarilgan.

G'ijduvon chevarlari ipak ipni chap - rost qilib chillikda tob berib bajarsalar, buxoroliklar birishim iplari bilan chap rost toblamasdan kashta tikishgan. G'ijduvon kashtalari asosan oq, kulrang, malla, tabiiy rangli karbos, qizil satin, oq surp va qo'ng'ir rang rensiga tikilgan bo'lsa, Buxoro kashtalari oq karbos, rangli adras, shoyi va hisori matolarga bajarilganligi bilan farqlanadi.

G'ijduvon so'zanalari joypo'sh va joynamozlari kompozistiyasi an'anaviy markaziy maydon, keng hoshiya va 2 ta tor hoshiyalardan iborat, markaziy maydonda simmetrik naqshlar ketma - ket holatda joylashtiriladi.

Keng hoshiyada asosan markaziy maydondagi naqshlar simmetrik holatda takrorlanadi yoki "islamiy" holatda takrorlanadi, naqshdan iborat bo'ladi. Ikkita tor hoshiyada bir - biriga o'xshash geometrik "islamiy" naqsh, "miandr", "mavj" yoki "sebarga"dan ikki yoki uch qator yo'rma chiziqlari o'tkazilgan. Kompozistiyani birinchi holatda asosan geometrik doiralar, "to'pbarggullar", butalar va shoxchalar tashkil qiladi. Ochiq qolgan joylarga barg, shoxcha, ko'zacha, oftoba, ayrim hollarda qushlar tasviri tikib to'ldiriladi.

Kashtalarda - butagul, gul daraxt, qo'shko'rak, tagalak, anguri, shobarg kabi shaqshlar uchraydi. Ba'zi hollarda katta binolarning arab yozuvida forsiy va turkiy tillardagi baytlar tikib bezatishgan. Odatda, yirik katta buyumlari nusxalarini maxsus tajribaga ega bo'lgan chizmakash - nusxachalar chizishgan. Chizmakash naqshlarni "rangli siyo" - qora tabiiy bo'yoqlar bilan chizgan. Kashta kompozistiyasi chizilayotganda, matoh yaxshi taxta qilib tikilgan, uning dioganallari bo'yicha qatlab markazi topilgan, keyin asosiy maydon va keng hoshiyaga ajratilgan. Har bir kashta nusxasini yaratish chizmakash uchun ijodiy jarayon hisoblangan. U hech vaqt tayyor ulgudan nusxa kuchirmagan. Ammo u kashta nusxasini kashtachiga ham chizma tariqasida bermagan. Uning hunari shaxsiy sirga ega deb hisoblangan. Kashtachilar kashta tikishda ayrim unsurlarni tikmay qoldirishgan.

Buning ma'nosi, kashtachi chevarga ko'z tegmasin. "Chashmi bulbul", "dandon", "dutarafa dandon", "zanjiri", "barra tishi" naqshlari kashta qismlarini chegaralashda qo'llanilgan. G'ijduvon kashtachilari ranglarni mahalliy tilda: pistoqi yashil, nofarmon - siyohrang gulobi ko'k, shirchoyi - nilobi, gilosi - to'q qizil, kabo'ti - yashil, siyoh - qora, zard - sariq, xokistar - kulrang.

Kashtachilikda tabiiy iplarni tayyorlash:

XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida O'zbek kahtalarida rang berish tubdan o'zgardi. Ilgari Ipaklar analin bilan bo'yalgandan so'ng, ularning nafisligi, jozibasi pasaydi, dag'al va yoqimsiz bo'lib qoldi. Kashtachilikda ipak iplar tabiiy bo'yoqlarda bo'yab tikilgandan so'ng, avvalo, badiiy bezak san'atining umr boqiyiligi ancha osdi, avloddan-avlodga meros bo'lib qolish, bir necha yuz yillar holatini saqlab qolish xususiyati kuchaydi.

Tabiiy bo'yoqlarga bo'yalgan ipak iplari quyosh nuri, tabiat inijliklari, tashqi muhit ta'sirlariga ancha pishiq va mustahkamdir. Tabiiy bo'yoqlarga bo'yalgan, ipak iplaridan tayyorlangan goh katta so'zanalar, goh kichik hajmdagi kashtachilik namunalari insonda ijobiy ta'sir uyg'otadi.

Ipakni tabiiy yo'llar bilan bo'yash usuli quyidagicha:

10-15 litr suv olinadigan qozonga 1 kg ishqor (saksovul, sho'ra, g'o'zapoya kuli) doka xaltachaga solinib, qozonga tashlanadi va suv 5-10 minut qaynatiladi. Ipak iplar kalavasi maxsus ishqorlangan 2 ta yog'och tayoqlarga joylashtirilib, qozonga solinadi va goh-gohida ular aylantirilib turiladi. Kalavalar 30-40 minut qaynatiladi.

Qaynatilgan ipak ip kalavalari, avval iliq suvda 3-4 marta, keyin sovuq suvda 3-4 marta ikki qo'llab, suvda aylantirilib yuviladi va chayiladi. Oxirida yaxshilab siqib, silkitib quritiladi. Yumshatilgan ipak iplarini tabiiy bo'yoqlar yordamida bo'yaladi. Tabiiy bo'yoq tayyorlashda eng muhim o'simliklarning qaysi turidan va ularning qanday qismidan bo'yoq olish mumkinligini bilish zarur. Bunda quritilgan usmadan, piyozning yupqa po'stlog'idan, quritilgan anor po'stlogidan, daraxtlarning po'stlog'idan va boshqa o'simliklardan foydalaniladi. Bu jarayonning oz' siru-asnolari va bosqichlari mavjud.

Ipakni bo'yashda o'simliklardan foydalanish usullari:

a) 1 kg ipakni sariq rangga bo'yash usuli:

Anor po'stlog'i nim qorong'u joyga quritiladi.

Quritilgan anor postlog'I yaxshilab yanchiladi.

500 gr yachilgan anor po'stlog'i, 5 gr ishqor. Bu aralashma 40-45 minut past olovda qaynatiladi, so'ng 80 gr achchiq tosh solinadi. Jamlangan ipak iplar solinib, 10-15 minut aralashmada saqlanadi va iplar sariq rangga bo'yaladi.

b) 1 kg ipakni yashil rangga bo'yash usuli:

Maxsus quritilgan o'sma o'simligi barglaridan 500 gr, 50-60 gr achchiq tosh, 5 gr soda, 200-300gr II yoki III temir oksidi. Aralashma 40-45 minut past olovda qaynatiladi. Qaynatilgan suv aralashmasiga iplar solinadi va 10-15 minut ikki qo'llab aylantirilib turiladi. Iplar yashil rangga bo'yaladi.

Kashta tikish uchun gazlama bilan, ip buyumlarining nimaga mo'ljallanganiga, bezakning xarakteriga va tikish usuliga muvofiq tanlanadi. Kashta tikiladigan matoga muvofiq rangdagi ip tanlash kashtado'zlikda katta ahamiyatga ega. Bu kashtado'zdan katta mahorat va did talab qiladi. Kashtada foydalaniladigan iplar rangining o'zaro muvofiqligi ham, kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi. O'tmishda turli-tuman rangdagi matolarning kamligi sababli, ko'pgina bezak kashtalari bugun mato sathini kashta bilan qoplab tikilgan. Hozirda so'zana, choyshab, zardevor kabi bezak buyumlari baxmal, shoyi, satin matolariga tikilmoqda. Bu kashtani jozibador chiqarishda rangdan keng foydalanish imkonini beradi.

Kashtado'z kashta tikmoqchi bo'lgan libos shakliga, matosi rangiga qarab, kashta nusxasini tanlashi kerak. Mulina-yuqori sifatli paxta tolasidan tayyorlanadi. 12 qatli, maxsus ishlov berib sifati oshirilgan, chidamli bo'ladi. O'n yoki yigirma metrlik kalava tarzida chiqariladi. Ipak iplar-tabiiy va kimyoviy tolalardan tayyorlanadi. Pishitib-yigirilgan turli razmerdagi oq bo'yalgan bo'lib, kalava qilingan (40g li), g'altak va qog'oz patronlarga o'ralgan (50, 100, 200m uzunlikda) bo'ladi. 13-18-nomerli ipak iplar jun, zig'ir poyasidan, sun'iy tolalardan tayyorlangan iplar, mayin sim, zar ip, charmdan ensiz qilib tayyorlangan tasmalar bilan tikiladi.

Kashtaning rangi uning fonidan ya'ni, asosidan kelib chiqib, rang koloriti tanlanadi. Oq bo'z hech qachon sutdek oppoq bo'lmaydi. Uning biroz kulrang, sarg'ish tusi uzviy koloritni hosil qilishga bir qadar mosdir.

Agar fon bo'lsa, u holda shu rangga mos kashta ipaklari tanlab olinadi. Ba'zan fon ipaklar bilan birga ornamentning rang-barang ochilib turishiga xizmat qiladi.

Kashtalarda qo'llaniladigan yashil ranglar ham turli-tuman bo'ladi. Ularda sarg'ish yashil va ko'kish feruza (dengiz suvi rangi) turlari bilan birga to'q havo rang, yashil ranglarninig har xili qo'llanishi mumkin. Sariq va havo ranglarninig aralashuvidan hosil qilinadigan yashil rang ham har xil ko'rinishga egadir. Unda goh zarxal, goh havo ranglar tovlanib, ajoyib joziba hosil qiladi. So'zana tikkanda uning ornamenti sidirg'a tikiladi, bezaklari esa "Yoqimli" qizg'ish va "Yoqimsiz" to'q qizil ranglarninig tartibli ravishda qaytarilish asosida tikiladi.

"Yoqimli" to'q qizil va "Yoqimsiz" malla ranglarning bir xilda almashinib kelinishi Buxoro, Shofirkon kashtasiga mosdir.

Rangli bezaklar ishlashda faqat qizil ranglarga qo'llanilmay, balki gullar, doira bezaklarining ayrim joylari sariq, zangori, novvoti, och binafsha va pushti rang iplarda tikiladi. Odatga ko'ra gullar va doira bezaklarining chetiga konturlar tikilmaydi. Bu esa bezaklarninig tabiiy gulga o'xshashiga olib keladi. Gulninig barglari qora yoki boshqa ranglar chiziqlar bilan chegaralanadi. Kashtalardagi rang-baranglik, qizil va yashil, sariq va binafsha, to'q sariq va havo rang, yashil va to'q sariq, qora va oq ranglar kontrasti asosida beriladi.

Buxoro, Shofirkon kashtalarining xarakterli tomoni shundaki, ularda ko'proq zangori, kul rang va pushti ranglar ishlatiladi. Aynan shu ranglarni Varaxsha devori naqshlarida ham (mil.av. VII asr yodgorligi) uchratish mumkin. Badiiy buyumlarini kashtachilikda bezash uchun, tabiiy iplardan foydalansa, buyumlar o'zgacha bir go'zallikga ega bo'ladi. Bunday ipak tolalar tabiiy yo'l orqali ranglanadi. Avvalambor, mahalliy sharoitda pilla tolasini yumshatiladi, va bajariladi.

KASHTACHILIKDA NAQSH KOMPOZISIYASI

VA UNING TURLARI.

Kashtado'z, musavvir, shoir yoki sozanda biron-bir yangi asarni yaratar ekan, albatta tabiatdan ilqom oladi va undagi mavjud go'zallikni yanada jozibaliroq aks ettirishga harakat qiladi. Ma'lumki, o'zbek xalq amaliy bezak san'atining qaysi bir turi bo'lmasin, uning zaminida naqsh kompozitsiyasi - kompozitsiya asoslari yotadi. Mavjud naqsh kompozitsiyasini ma'lum qonun-qoidalarga amal qilingan holda joylashtirish, ya'ni kompozitsiya tuzish uziga xos bilim va malakaga ega bo'lishni talab etadi.

Birgina "Bodom", "qalampir" nusxalari shaklidan kashtado'zlik, ganchkorlik, kulolchilik, zardo'zlik kabi xalq amaliy san'atida turli-tuman o'ziga xos naqsh namunalarini yaratish mumkin.

"O'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan ko'plab naqshlar, tabiat hamda voqelikning shartli tasviri bo'lishiga haramasdan, o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan. O'simliklar faqat bir tomonga qarab o'sadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyuladi, lekin, novdada barglar bo'lib, bir xil yo'nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshlarda ham o'z aksini topgandir. Usta chizadigan naqsh shunchaki qog'oz betini to'ldirish emas, balki ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iborat".

Kompozitsiya - lotincha so'z bo'lib, joylashtirish, qurish, tuzish degan ma'noni anglatadi. Bunda tanlangan naqsh namunasiga ko'ra uning kompozitsiyasi qog'oz yuzasida bir-biriga bog'liq holda joylashib, yaxlit kompozitsiyani qosil qiladi. Istalgan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyalarini tuzishda avval ko'plab xomaki ishlar, eskizlar ishlanadi va ulardan eng chiroyli namunalar tanlab olinadi.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzishda elementlar o'rnini almashtirish, qo'shimcha elementlar kiritish orqali uning mazmunini yanada boyitish kabilar ham muqim ahamiyatga egadir. Naqsh mazmunini ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim.

Bular kompozitsiyaning bir butunligi, elementlar, shakllar, ranglarning takrorlanishi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, kompozitsiyaning tarkibiy qismi bo'lgan rang tuslarining ma'lum bir koloritga bo'ysundirishdan iborat. Kompozitsiyada naqsh yaratishning shunday qoidasini simmetriya, assimetriya, ritm, markazni, stilizatsiya, muvozanat, elementlarning o'lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilishni tashkil etadi va bunga qat'iy amal qilinadi.

Kashtado'z naqsh chizishda quyidagilarga amal qiladi:

1. Naqsh namunalaridagi chiziqlar harakatning stilistik birligiga erishish.
2. Davriy takrorlanish.
3. Simmetrik joylashuv va ranglar mutanosibligini aniqlash.

Bular mustaqil naqsh chizish jarayonida uning qismlari o'rtasidagi bog'liqlik, naqshdagi elementlarning o'q chiziqiga nisbatan teng ravishda joylashuvi, rang tuslarining bir-biriga muvofiq ravishda naqsh sirtiga yoyilishi, turli gullar, novdalar va shu kabi shakllarning uzviy ritmik jihatdan boqlanishi hamda shu kabilardan iborat.

- Chiziladigan naqsh kompozitsiyasini shakl, o'lcham va taqsimlarini mo'ljalga olish.
- Kompozitsiyaning yakka, yoki qo'sh banddan iborat bo'lishligini nazarda tutgan holda tanob (yasovchi) elementi shakllarini joylashtirish.
- Kompozitsiyaga novda, barg, gul, shobarg va boshqa naqsh kompozitsiyasini kiritib mukamallashtirish.
- Naqsh bandini bofta, shkufta kompozitsiyasi bilan bog'lab boyitish.
- Kompozitsiyaning asosiy shaklini umumlashtirib, shu naqshni nomlash.
- Kompozitsiyaning ma'no va maqsadini hisobga olgan holda rang tuslarini aniqlash va boshqalar.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzish jarayonlarida simmetriya, assimetriya, ritm, muvozanat, elementlarning o'zaro birikuvi, turlanishi kabi qoidalarga rioya etish bilan birga, tabiat go'zalligini chuqurroq his etish, badiiy va ijodiy qobiliyatning rivojlanishi ham shakllanib boradi.

Simmetriya - tenglik degan ma'noni anglatadi. Bunda naqsh kompozitsiyasi o'q chiziqining markazi atrofida bir xil o'lchamda joylashadi, hamda bir butun yaxlit ko'rinishda tikiladi. Naqsh kompozitsiyasining simmetrik tuzilishi - "rapport" naqsh bo'laklari va bo'linish joylari esa "taqsim" deyiladi. Yo'l ichiga joylashgan "qoshiya naqsh" lari simmetrik rapport tarzida davriy (ya'ni ritmik) takrorlanib keladi.

"Rapport" naqsh kompozitsiyasining ma'lum tartib va oraliqda uzluksiz takrorlanib kelishini bildiradi.

Assimetriya - simmetriyaning teskarisi bo'lib, bunda kompozitsiyadagi muvozanat qonuniyatiga amal qilinmaydi. Naqsh kompozitsiyasidagi harakat bir-biriga mutanosib ravishda joylashmaydi. Bunda naqsh kompozitsiyasi o'q chiziqi va markaz kabi shartli belgilarga rioya qilinmagan holda joylashtiriladi. Assimetrik naqshlarni ko'proq ayollar libosida, pannolarda ishlatiladi.

Mustaqil ijod orqali yangi naqsh namunalari yaratilar ekan, ranglar jozibasi va yorqinligi ham aloqida his etib boriladi. Kashtado'zlik, ganchkorlik, yoqoch o'ymakorligi va boshqa xalq amaliy bezak san'ati turlarida dastlab buyum yoki ma'lum bir yuzalarga ishlanadigan naqsh kompozitsiyasini dastlabki xomaki namunasi ishlanadi va u "naqsh chizgilari" deb ataladi. Naqshning shakl yasovchi yo'l kompozitsiyasi va rang tuslari kompozitsiyaning nomlanishida katta ahamiyatga egadir.

Mustaqil ijod orqali biz yangi naqsh namunalari yaratish ekanmiz, ranglar jozibasi va yorqinligini ham aloqida his eta boshlaymiz. Chunki, kompozitsiyaning mazmuni va ma'nolariga mos ranglarning o'zaro birikuvi, naqshning nafisligini oshiradi. Tuzilgan kompozitsiyaning mazmunan boy, chiroyli tuzilishi, naqshning asosiy shakl chegarasiga ham bog'liq.

Kompozitsiya tuzishda dastlab o'lcham aniqlangach, naqshning asosiy shakli bajariladi. Naqsh eskizini tuzishda elementlar ko'rinishini yo'l, aylana, chorsi va hokazo shakl o'lchamining ichiga joylashtiriladi.

Masalan, so'zana, yostiqlik jildi, liboslar kompozitsiyasini misol qilsak bo'ladi. Bu oddiy naqsh kompozitsiyasini bosqichma-bosqich, yo'l, to'rtburchak va aylana kabi shakllar ichiga joylashtirib, kompozitsiyal tuzib chiqiladi.

Naqshlarni - shakl yasovchi elementlarning nomlari bilan atash mumkin. Masalan, "mehrob lola" - ko'rinishi ifodalangan yo'l ichidagi naqsh shakli odatda "qoshiya naqshlar" deb atalganligi sababli "mehrob qoshiya" deb nomlanadi. To'rtburchak shakldagi naqshlar patnisga o'xshash bo'lganligi sababli "mehrob patnis" shaklidagi naqsh kompozitsiyasini tashkil etadi va shunday nomlanadi.

Aylana - gardish shaklidagi naqsh kompozitsiyasi esa "aylana mehrob" naqshi deb ataladi. Ushbu naqsh shakllarini ixtiyoriy ravishda yakka (1), qush (2) va bir necha bandli ramka ko'rinishlarida chizish mumkin. Bunday turdagi ko'rinishlar "naqshlar rejasi" deb ham yuritiladi. Tuziladigan naqsh kompozitsiyasi naqsh kompozitsiyasini ana shu kabi turli qoliplar ichiga joylashtirib qosil qilinadi.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzishni o'rganishda xalq ustalarining ijodiy ishlarini kuzatib, ulardan nusxalar ko'chiradilar. Shuningdek, turli muzeylar, uylar va ma'muriy binolarni ichki va tashqi tomonlarini bezashda qo'llanilgan naqshlar va ularning turlari bilan tanishtirib boriladi. Naqsh kompozitsiyasini yangi nusxalarini yaratish, ularni yoddan chizish borasida tabiat qo'yniga sayoqatga chiqish va unda nazariy hamda amaliy bilim, malakalar asosida stillashtirish usullari bilan bevosita shuqullanish kerak.

Yana ramziylik va qayta ishlashga doir maxsus ketma-ketlik asosida tuzilgan rangli yoki oq-qora foto-suratlardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Boshlanqich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzishda dastlab yuza sirtini, uning o'ziga xos o'lchamlarini diqqat bilan ko'zdan kechirib naqsh shaklini "xayolan" tanlab olamiz. (Masalan zo'zana yuzasiga bajariladigan eskiz). Albatta bu naqsh kompozitsiyasi biz qachonlardir kuzatib yoki o'zlashtirib olgan naqsh bo'laklaridan iborat.

Bunda biz fikr yuritishimiz orqali ish tajribalarimiz, tasavvur, shuningdek xotira zaqiralarimizda qanchalik ko'p naqsh kompozitsiyasi mavjud bo'lsa, shuncha ko'p ajoyib naqshlar tuzishimiz mumkin bo'ladi.

Kompozitsiyaning rejasini tuzish va chizish jarayonida, zamin bo'yicha tarqaluvchi naqshlar va elementlarning o'zaro mutanosibligi hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida (lozim topilgan taqdirda ayirish o'zgartirishlar kiritish orqali) har bir elementga aloqida ishlov berilgan holda, uning nusxasi kerakli matoga ko'chiriladi va yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

Naqshda kompozitsiyalar asosan yakka va qo'sh bandli novdalar ishtirokida tuziladi. Yana bir boshqa naqsh kompozitsiyasini tuzish uchun mehrob ko'rinishigagi naqsh kompozitsiyasini tanlab olamiz. Mavjud mehrob elementini yo'l, to'rtburchak va aylana matolari ichiga joylashtiramiz. Ushbu mehrob shakli kompozitsiyada yasovchi (asosiy shakl) vazifasini o'taydi. Navbatdagi chiziluvchi barcha naqsh kompozitsiyasini to'ldiruvchi elementlar deb atash mumkin. Chunki ular (bodom, anor, novda, barg, gul, kurtak, va hokazo) naqsh yuzalarini to'ldirib turadilar. Endi mehrob ko'rinishigagi shakllarga novda harakati kiritiladi. So'ngra, shakl yuzalariga mos ravishda lola guli hamda kurtak naqsh kompozitsiyasini chizamiz. Bunda o'ziga xos ko'rinishdagi yangi naqsh nusxalari qosil bo'ladi.

So'zanani tikishdan oldin, uning umumiy badiiy yechimini o'ylab ko'rish, bezakning, undagi ayrim bo'laklarning buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak.

Kompozitsiya xarakteri ko'proq ritmga - naqshdagi alohida elementlar yoki element gruppalarining qonuniy almashinishiga bog'liq bo'lib, bu kompozitsiyaning ifolali bo'lishiga, aniq idrok etilishiga yordam beradi. Yo'l ichida bajarilgan ba'zi naqsh bezaklari, shunday xususiyatga egaki, har bir yo'lda ma'lum umumlashtirilgan uslubda, bitta motiv bir yoki bir necha marta takrorlanib, ritmik qator hosil qiladi.

Mutlaqo bir xil elementlarning yoki elementlar gruppasining takrorlanishi rapport deyiladi. Naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va h.) dan, shuningdek to'liqsimon, siniq chiziqlar, o'simlik motivlari (barglar, gullar, shohlar, daraxtlar)dan, jonivorlar dunyosi (hasharotlar, qushlar, baliqlar va h.) tasviridan, shuningdek, umumlashgan odam qiyofasidan foydalanish mumkin. Ba'zan naqshda geometrik shakllar bilan tabiat motivlari qo'shilgan bo'ladi. Naqshning hamma qismlari mutanosib bo'lishi kerak.

O'zbek milliy kashtado'zlik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi.

Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek chevar ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning barcha viloyatlarida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san'at muzeylarida ko'p namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik shakl, hamda gul naqshlari ko'p qo'llaniladi. Kashta tikish uchun kashta gul, rasm bo'lishi zarur.

Naqsh - arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Kashtado'zlik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi, qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Rang-tasvir vositalar yordamida ishlangan, nur va soyalar hajmni keltirib chiqaradigan, shu bilan birga o'ylamay-netmay tabiatdan aynan ko'chirishga intilmagan rasmchini naturadan yaqinroq bo'lishi mumkin. Kashta gulini yaratishda naturaga qarab rasmni chizib oladi, keyin uni naqshga va turli naqshdor kompozitsiyaga aylantiriladi.

Naqsh bilan amaliy san'at buyumlari bezatiladi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo'lib, o'sha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan tiqilishiga butunlay bog'liq bo'ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (guli va hokazo) xarakterli belgilari tanlanadi.

O'simlik, qush motivlarini aniq ko'rsatishga intilmay, faqat asosiy chiziqlarigina bo'rttirib kontur qilib chiziladi. Biror buyumni tikishdan oldin uning badiiy echimini o'ylab ko'rish, bezakning undagi ayrim bo'laklarining buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozistiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozistiya xarakteri ko'proq ritmga-naqshdagi alohida elementlarga bog'liq bo'lib, bu kompozistiyaning ifodali bo'lishiga aniq idrok etilishiga yordam beradi.

Kompozistiya (mujassamot) - lotincha «Kompositio» so'zidan olingan bo'lib, *to'qish, tuzish, bir-biriga solishtirish, naqshni g'oyasi, xarakteri va vazifasiga, muvofiq uyg'un hamda mutanosib joylashtirish* degan ma'noni anglatadi.

Ritm - naqsh kompozistiyasining ma'lum bir qismi, ma'lum bir masofada doimiy ravishda bir tekisda takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go'zal ko'rinishini ta'minlaydi.

Simmetriya - grekcha so'zdan olingan bo'lib, o'lchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi.

Assimetriya - kompozistiyada simmetrik qonun-qoidalarining muvozanatini buzilishidir.

Stilizastiya - tabiatdagi o'simlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va uzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir. Naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va hokazolar) dan shuningdek, to'liqsimon, siniq chiziqlar, spirallardan, o'simliklar (barglar, shoxlar, daraxtlar) dan, jonivorlar dunyosi (hasharotlar, qushlar, baliqlar, hayvonlar) tasviridan foydalanish mumkin. Naqshda geometrik shakllar bilan tabiatdagi o'simliklar qo'shilgan bo'ladi. Kashta bezaklariga simmetrik, ya'ni asosiy chiziqlar, shakllar, ranglarning gorizontal yoki vertikal simmetriya o'qiga nisbatan qonuniy joylanishi xarakterlidir.

Gul bitta, shuningdek, ikkita yoki bir necha simmetriya o'qiga nisbatan tuzilishi mumkin. Kashtada gul ko'pincha yopiq yuzada, ya'ni qandaydir geometrik shakl bilan chegaralangan yuzada tuziladi. Bu kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidagi dasturxon, so'zana, palak, zardevor, kirpech, choyshab, belbog', yostiq ustiga yopiladigan jild, dastro'mol va hokazolar bo'lishi mumkin.


Buyum shakliga va kashtado'zning mo'ljaliga qarab kashta gulning shakli va joy o'zgarishi, masalan, dasturxon, dastro'mollarning burchaklariga yoki o'rtasiga kashta tiqilishi mumkin. Burchakdagi kashta gullarining tuzilishi har xil bo'ladi. Bezakda bargli va gulli novdalar burchakdan chap va o'ng tomonga yo'nalgan. Hamma bezaklarda aytilgan o'simliklarga o'xshashlik saqlanib, gul va barglari yangi shaklga kiradi. Ularda tabiatda uchraydigan kamchiliklar: burishgan yoki singan barglar, buralgan gulbarglar, singan yoki zichlashgan shoxchalar yo'q. Bunday novdani ko'rish uchun barglarni surib tekislash, ulardan bir qismini uzib tashlash kerak. Rassom ham kashta bezagini yaratishda xuddi shunday qiladi.

Gul va barglarning aniq shakllari rassom o'ylaganicha itoat etib, yangicha yo'l yoki yuzani to'ldiradi. Bunday bezaklarda gullar, barglar va mevalar bir-biriga halaqit bermaydi, bir-birini ustiga o'tmaydi. Buyumni bezak elementlari shunday joylashtiriladiki, ular orasidagi bo'sh joylari bir tekisda taqsimlanib, bezakning bir qismi bo'lib qoladi. Kashta uchun xalq orasida tarqalgan bezaklar va rassomlar yaratgan rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi. Rasmlarning ba'zi qismlarini ixtiyoriy ravishda kompozistiyalash ham mumkin, lekin tabiatni kuzatib, bezaklarni buyum yuzasiga joylashtirishni ham o'ylab topish yanada qiziqarliroqdir.

KASHTA TIKISH TEXNOLOGIYASI

Kashta turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdir. Kashta har xil kiyimlarga, ro'zg'or buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zig'ir, jun, ipak, sun'iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metall pulakcha, qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda o'ziga xos ish qurollari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos operastiyani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to'g'nag'ich, angishvona qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi, Chambarak asosan yog'ochdan yasaladi, u doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham chambarak ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yog'och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi.

Ayrim materiallarga masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun o'tkir uchli 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay bo'lishi uchun, qatim 50-60 sm dan uzun bo'lmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa angishvona qo'llanilmaydi. Naqsh nusxasi har xil materiallarga, har xil yo'llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko'chiriladigan qog'ozlar axta, yorug'lik yordamida, naqsh chizilgan qog'ozni material ustidan ko'klab chiqiladi keyin bu qog'ozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtado'zdan katta mahorat hamda did talab qiladi. To'g'ri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi. Qo'lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoqhamda o'rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi esa matoga gul tasviri konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq o'rim iplari kesishtirib tiqilgan polotno yoki bo'z shaklida to'qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O'zbekistonda keng tarqalgan. Erkin kashta mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi.



O'zbek kashtachiligida yo'rma, ilma, iroqi, bosma, xomdo'zi, chamak, chipta xayol, baxya choklar keng tarqalgan. Badiiy kashtalarda turli joydan turli choklar ishlatiladi. Chunonchi Shahrisabzda yo'rma, kandaxayol, Iroqi, Toshkentda ko'proq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqand yo'rma choki bilan tikiladi.

Chamak choki - kashtatikish choklaridan biri bo'lib, chapdan o'ngga ikki parallel chiziq bo'ylab tikiladi va ip o'tkazilgan igna o'ngdan sanchiladi. So'ng yuqoriga chapga tomon qiya qilib chiqariladi va pastki chiziqqa parallel ravishda to'g'ri qadaladi hamda pastki ham qiya qilib chiqariladi. Chamak choki ko'pincha naqshlarni ramkaga olishda yoki do'ppi kizaklariga badiiy bezak berishda ishlatiladi.

Qaychini kichik o'tkir uchlisi ishlatiladi. Chamak choki rus kashtado'zlari orasida «kozlik» deyiladi. Baxya choki - kashta chetlarini mustaqamlashga xizmat qilib, matoga xuddi ko'klagandek, lekin bir tekis chok qamda masofa qisobga olinib tikiladi. Shundan so'ng mato o'girilib yana tikib chiqiladi, natijada tekis ip chiziqhosil qilinadi. Bu chok juda qadimdan qo'lda, keyinchalik mashinada tikiladigan bo'lgan. U ikki qator, ya'ni qatorlar o'zaro tutashib chiqishi qam mumkin. Kuppa choki turli yo'nalishda, ya'ni chapdan o'ngga, o'ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidirg'a tikib hosil qilinadi. Yonma-yon tikiladigan choklar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan-kichiklashib boradi. Bu chok duro'ya, (ikki tomonlama) sanama, piltado'zi nomlar bilan yuritiladi.

Do'ppido'zlikda va kashtalarda juda keng foydalanadi. Chindi xayol - duro'ya choki, matoga igna qadalib bir me'yorda tikib chiqiladi, teskari o'girib yana tikib chiqiladi. Shu tariqa matoning oldi va orqa tomonida bir xilda gul qosil qilinadi. Bu chok bilan ikki tomoni xam ko'zga tashlanadigan buyumlar, ya'ni sochiq, ro'mol va boshqalarni bezashda ishlatiladi.

Yo'rma choki yo'rmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning o'ng tomonida xalqalar zanjiri xosil qilib tiqilib, bigizga o'tkazilgan ipak matoning sirtida chap qo'l bilan ushlab turiladi. Sanchilib chiqqan igna bilan esa, halqa hosil qilinadi.

Yo'rma choklari bilan yirik kashtalarning hoshiyalari, gul va barglarni asosiy shoxga ulaydigan band va boshqalar qadimdan shunday usulda tiqilgan. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zlari ko'p foydalanadilar.

Qo'lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoq hamda o'rim iplarini sanab kashta tikish; ikkinchisi esa matoga naqsh-gul, tasvir konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq va o'rish iplari kesishtirib to'qilgan mato polotno, bo'z shaklida to'qilgan matoga tikiladi. Chunki bunday mato ishlarini sanab tikish qulay. Bunday kashta gullari geometrik shakllar, uzun-qisqa to'g'ri chiziqlardan iborat.

O'zbekistonda sanama kashtaning iroqi turi tarqalgan. Erkin kashta esa har qanday matoga tikilaveradi, tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. Kashta tikishni boshlaganda naqshlar cheti (konturi) oldin tikib chiqilib, keyin ichi to'ldiriladi. Kashta tikayotganda popok mashinasidan murakkab kashtalar yo'llarini, gullarning o'zaklarini, gul atroflarini tikishda foydalaniladi. Oqlanganda bosma chokida igna bilan buyumning yuza qismida ish bajariladi. Unda ipning uchi bog'lanib matoning tagidan ustiga igna sanchilib ip tortiladi, tugun kashtaning orqa tomonida qoladi. Ip tugagach yana shunday qilinadi. Bu ish qandaxayol, duro'ya, xomdo'zi, ilmoq choklarida ham amalga oshiriladi.

Kashta tikilayotgan buyum tizza ustiga erkin tashlab qo'yilib tikiladi. Yirik buyumlar (so'zana, takiyapo'sh, gulko'rpa, choyshab, palak va boshqalar) kompozistiya va naqsh chizilgach bir necha taxtaga ajratilib, kashtado'zlik qilingach, qaytib birlashtirib tikiladi. Bunda har bir bo'lak boshqa-boshqa chevar tomonidan tiqilishi mumkin, ammo ip-ranglar, uslub chizmada belgilab olinadi va umumiy ranglar gammasi saqlangan bo'ladi.



O'zbek kashtachiligida iroqi, ilma, bosma, xomdo'zi, chamak, chinda xayol, baxya choklari keng tarqalgan. Turli joylardagi badiiy kashtalarda choklar turlicha tikiladi. Chunonchi, Toshkentda ko'proq bosma choki, Shaxrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Buxoro, Samarqand, Nurotada yo'rma choki bilan tikiladi.

Yo'rma choki-yo'rmaki, ilmoqli bigiz yoki igna bilan matoning o'ng tomonida xalqalar zanjiri, teskari tomonida esa to'g'ri chiziqchalar hosil qilib tikiladi. Yo'rma choki bilan ko'pincha jiyaklar, bezak buyumlarining hoshiyalari, kashta ichini to'ldirish, shuningdek, yirik kashtalarning ayrim qismlari, gul va barglarni asosiy shoxga ulaydigan band va boshqalar qadimdan shunday usulda tiqilgan. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zlari ko'p foydalanadilar. Yo'rma chok bir-birining ichidan chiqib keladigan uzluksiz qator xalqalar zanjiri bo'lib, bu chokni chambarakda va o'zi tomon yuritib qaviq tushiriladi. Kashtani chambaraksiz tikayotganda gazlama tortilib qolmasligi, chok yumaloq shaklda bo'lishini kuzatib borish kerak. Agar kashta ikki qavat ip bilan tikiladigan bo'lsa, ipni gazlamaga puxtalash qabig'i yo'rma chokining birinchi qobig'i bo'lishi mumkin.

Puxtalangandan keyin ipni chapdan past tomondan o'ngga yo'naltiradi, ignani esa birinchi xalqa o'rtasidan ip gazlama o'ngiga chiqqan nuqtasida gazlamaga kiritiladi. Igna birinchi xalqaga nisbatan gazlamaning to'rt - beshta ipiga teng oraliqda pastroqdan, ip petlyasi igna tagida qoladigan qilib chiqariladi. Kashta to'g'ri chiziq bo'ylab har bir qaviqqa gazlamadan bir xil miqdorda ip sanab tikiladi.

Yo'rma-do'zi uslubida tikishda ip doimo buyumning ostida turadi, bigizga-bigiz ilmog'iga chap qo'l bilan ildirib, turiladi, o'ng qo'l sanchib, uni tortib olib choklar zanjirini hosil qilishda xizmat qiladi. Yo'rma choki igna bilan bajarilganda, unda ish faqat buyum ostida bajariladi. Yo'rma chokni siniq chiziq tarzida tikish ham mumkin. Bunday chokning teskari tomonidan qaviqlari va o'ng tomonidan petlyalari chokning o'rta chizig'idan navbatma-navbat bir chapga bir o'ngga joylashgan bo'ladi. Chamak (hunariy) choki- kashta tikish choklaridan biri bo'lib, chapdan o'ngga qarab ikki parallel chiziq bo'ylab bajariladi.

Ip o'tkazilgan igna o'ng tomondan sanchiladi, yuqoriga chapga tomon qiya qilib chiqarilib, pastki chiziqqa parallel ravishda to'g'ri qadaladi va pastga qiya qilib chiqariladi. Shu tarzda davom etaveradi, bu chokni pastdan yuqoriga tomon tikkan maqul

Kashtachilikda tikish choklari.

O'zbekiston xonadonlarida asosiy bezaklaridan biri - kashtadir. Ayniqsa bayram, to'y, marosim paytlarida ular o'zbek xonadonida alohida ahamiyat kasb etadi: Kashtadagi katta gullar xonaga to'g'ri nisbatdan joylantiriladi va uzoqdan yaxshi ko'rinishi ham e'tiborga olinadi. Qorong'iroq uylarda joylashtirilgan rangorang ipak kashtalar tovlanib turadi va insonga estetik rux bag'ishlaydi. Kelin tushadigan xonaning devorlarida bo'sh joy qoldirilmaydi.

Xuddi shu xususiyat boshqa millat va elatlardan farqlanadi. "Takiyapo'sh" (Nurato, Buxoroda "bolinpo'sh, "Samarqand, Shaxrisabzda "yostiqqo'sh" deb yuritiladi). Bular taxmonga (rax) yig'ilgan ko'rpa - yostiqlarni yopib qo'yiladi. Taxmon (rax) uyning to'rida bo'ladi.

Kashtachilik kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi, uylarni bezatishdagi ahamiyati bilangina emas, balki asrlar davomida shakllangan odat va rasm - rusumlar sababli ham xalq orasida keng tarqalgan edi.

So'zana, takiyapo'sh, joynamoz - inson, ayniqsa xotin - qizlar hayotidagi quvonchlik hodisalar bilan bog'liq bo'lgan. Ularni asosan kelin tomon atab tikar va beriladigan qiz sepining majburiy hamda asosiy qismini tashqil etadi. Yosh kelin - kuyovlarga qadim – qadimdan saqlanib kelayotgan odatga ko'ra, kashta gullariga “yomon ko'zdan saqllovchi” tumorchalar qo'shib tiqilgan. Bitgan kashtaga atayin ayrim joylari chala qoldiriladi. Bu esa o'ziga xos ramziylikni bildiradi, yani farzandlar davom ettirishi, hayotining bog'liqligi, avloddan - avlodga o'tishi yoki to'y ketidan to'y kelsin va kashtalar tikilaversin, qizim omon bo'lsin, boshimiz xursanchilikdan chiqmasin, degan ezgu niyatlari bildiradi.

Kashtalarning hajmi turlicha bo'yi 230 - 280 sm va 170 -200 sm ular yaxlit manzarani kashf etadi. Takyapo'shlar so'zanalarga qaraganda kichikriq bo'ladi bo'yi 170 - 250 sm, eni 120 - 150 sm, kompazistiyasi so'zanaga o'xshash bo'ladi. Joynamoz va nikoh choyshabi (joypo'sht) ning gullari boshqacha bo'ladi. O'rtalarida gul tikilmaydi. Mehrobli bo'ladi. Bo'yi 130 - 150 sm, eni 90 - 110 sm. Joynamozning oyoq tomonidan hoshiya tikilmaydi, ochiq qoldiriladi. Ro'yjo: bo'yi 260 - 285 sm, eni 160 - 200 sm. Uning uy tomoni P- shaklidagi hoshiya bilan bezatiladi. Bug'joma: (bug'cha) kunduzlari o'rinni o'rab qo'yish yoki turli xil buyumlarni tugib qo'yish uchun mo'ljallangan. Uning markazida to'rtburchak shaklida ornament tikiladi, gohida bir burchagiga gul tiqilgan bo'ladi.

Kashtachilik san'atiga ayollar o'zlarining kelajaklari bolalari va o'z baxtlari haqidagi orzu - umidlarini, tabiatga bo'lgan muhabbatlarini va go'zallikka intilishlarini singdiradilar. Bunday kashtaning noyob san'at sifatida yaratilishi tomoshabinning baxri - dilini, insonparvarlik, hayot va tabiatni sevish, ruhiy ozuqa olishdek insonda mehr uyg'otadi.

Har bir oilada kashta tikish odat bo'lib, qizlar yoshligidan o'rgatilib boriladi. Ular o'zlariga onalardan chala qoldirilgan kashtalarni tikib davom ettirganlar va o'zlari ham yangi kashtalar tikkanlar.

So'zanalar tikish bir yarim yil ikki yil davom etgan. Agar qizni turmushga chiqishi tezlashtirilsa, unda qarindosh - urug'lari, dugonalari va qo'shnilari to'yga qadar tugatish maqsadida yordamga kelganlar. Gul chizilmagan mato bo'lak - bo'lak bo'lib tiqilgan va oxirida birlashtirilgan. Kashtalarga "Qalamqosh" yoki "Chizmakash" deb nom olgan talantli xalq rassom - chizmakash ayollari gul chizganlar.

Chizmalar o'lchamsiz asosan ko'z bilan chamalanib chiziladi. Har bir joy (hududning) o'ziga xosligi mavjud bo'lib, bu o'sha chizmakashning mahoratini, uning tabiati, o'rab to'rgan muhitning qanchalik aniq va keng bilishiga bog'liq bo'ladi. Ular asosan qadimdan qolgan chizmalarni asos qilib olsalarda, chizmalarga o'zlarining fantaziyalarini qo'shib borganlar. O'zbek kashtalarining o'ziga xos xususiyati hammani maftun etib olishida, ularda bir xil elementlarning uchramasligi va mexaniq ravishda qaytarilmasligidadir.

XIX-asrning 80-yillarigacha yirik dekorativ kashtalar xonaki oq "karbos" ga sariq rangli "malla" matoga tikilardi. Hozirgi kunda "Zuxro" firmasida ham oq xonaki "karbos" ga, o'zlari tayyorlagan tabiiy bo'yoqlarda, ipak iplarda kashtalar tikish yo'lga qo'yildi. Tabiiy bo'yoqlarda, tayyorlash texnologiyasini tiklash va uni rivojlantirish olib borilmoqda. Har bir xalqning kashtado'zlik bezak san'ati qadimdan rivojlanib kelayotgan o'z an'analari, badiiy uslublari mavjud. Hamma ish qurollari: igna, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, angishvona, to'g'nog'ich, qaychidir.

Kalta tikiladigan bigiz ilmoqli, yog'och dastali bo'ladi. Kashta tikish paytida barmoqlarga bigizning ilmog'i zarar etkazmasligi uchun maxsus barmoqqa kiydiriladigan asbob "noxunak" - tojikcha so'z bo'lib, "noxun" tirnoq, tirnoqqa kiydiriladigan ma'noni bildiradi.



Bigiz - Buxoroda “daravsh” deb yuritiladi. Daravsh bilan tikishda ipak iplar avval kalava shaklida tayyorlanadi, bo’yaladi. Bo’yalganidan so’ng kalava qayta koptok shaklida o’raladi va iplarning biri o’ngga, biri esa chapga aylantiriladi , shundan so’ng ular birlashtirilib, ikki ip qatim qilinib o’raladi va kichik koptok shakliga keltiriladi. Daravsh bilan tiqilgan, tikiladigan matoning yuzi tomonidan taxminan 30 – 40 gradus qiyalikda so’kiladi va ip matoning ostidan barmoqlar yordamida berib turiladi.

“Yo’rma chok” bilan tiqilganda tikish gul konturi bo’ylab yo’rma chok zanjiri davom ettiriladi, chetki kontur tugagach, gulning ichiga turli tasvirlar tikib chiqiladi. Katta gullarni yo’rma - yo’rma zanjiri bilan to’ldirishda kashtachilar erkin uslubga suyanadilar.

Kashtachilik san’atida har bir millatning o’ziga xos eng ko’p qo’llaydigan naqshlari bo’lgani kabi o’zbek kashtalarida gullar, qush va mevalar ko’p tasvirlanadi. O’rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo’lib, xar bir o’zbek oilalarida ayollar kashta tikishni yaxshi bilgan. Xar bir oilada ayollar kirpech, so’zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o’zlari tayyorlagan.

Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Biz o'z iste'dodli, fidoiy bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qkilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak «Kasb-hunar inson uchun zarur faoliyat, kasb-hunarning umri uzoq, u o'lmas mo''jiza, tugalmas boylik - javohirdir. Chunki u avloddan avlodga o'tadi. Kasb-hunar tufayli barcha orzu umidlarga erishish mumkin. O'z kasb-hunarini yaxshi bilgan kishining ishi unumli bo'ladi. Kasb-hunarni egallagan, mehnatdan bo'yin egmaydigan odam jamiyatda qadr-qiyamat topadi. Xalq ichida obro' - e'tibor topish, mansab pillapoyalaridan ko'tarilish ham halol mehnat, hunar sirlarini mukammal egallash natijasidir. Shuning uchun ham xalqimiz «mehnat qilgan-elda aziz» deb bejizga aytmagan.

O'zbek xalqi azal-azaldan kasb-hunari, mehnati, halol va pokligi bilan dunyoga tanilib kelmoqda. Alisher Navoiy aytadi: Hunarni asrabon netgumdir, oxir, Olib tuproqqamu ketgumdir oxir. Buyuk allomalar hunarning inson hayotidagi ahamiyatini alohida ta'rif-tavsif etganlar. Xalqimiz «Hunar-hunardan unar» deganda, odamning rizq-nasibasi hunardan, mehnatidan paydo bo'lishini nazarda tutgan. Bizning ota-bobolarimiz azal-azaldan hunarmand, ijodkoru mirishkor bo'lishgan. Ularning hunarlari oradan necha yuz yillar o'tsa-da, hali-hanuz o'z qadr-qimmatini yo'qotmay, ko'rki - tarovatini namoyish etib turibdi.

Duradgorlik deysizmi, naqqoshlik deysizmi, zargarlik deysizmi, bog'bonligu sohibkorlik, ustachilik deysizmi - hammani lolu hayron qoldiradigan ezgu ishlar ajdodlarimiz, ularning davomchilari bo'lmish bobokalonlarimizdan bizlargacha etib kelgan.

KASHTACHILIK MISOLIDA SOVG'ABOP BUYUM TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI.

Kashta - turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga gul tikishdir. Kashta har xil kiyimlarga, ro'zg'or buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zig'ir, jun, ipak, sun'iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metall pulakcha, qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan yasalgan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda o'ziga xos ish qurollari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos vazifani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to'g'nag'ich, angishvona, qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi.

Kashta tikish asboblari va moslamalari

Qo'lda kashta tikish uchun o'ziga xos asboblari bo'ladi. Kashtachilikda ignalar, angishvona, qaychi, santimetr lenta, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar hamda chambarak ishlatiladi. Kashtachilikda oq, kul rang, och sariq, och malla rangli surp, bo'z, karbos, shoyi, baxmal, chit yoki satin kabi matolar ishlatiladi. Bunday matolarda naqshlar chizilganda yaxshi ko'rinadi, rangli iplarning aksariyati unga mos tushadi.

Gul, rasm, naqshlar chizish uchun chizg'ichlar, yumshoq va qattiq qalamlar, daftar, albom, o'chirg'ich, millimetrlangan qog'oz, nusxa ko'chiradigan qog'oz va shaffof qog'ozlar kerak bo'ladi. Chambarak gazlamani tarang tortib turish uchun ishlatiladi. 20-40 smli ikkita gardishdan iborat bo'lib, bir- birini ichiga tushib turadi. Agar kichik gardish katta gardish ichiga qiyin tushadigan bo'lsa, katta gardishning ichki tomonini jilvir bilan tozalash kerak. U juda kichik bo'lib, katta gardishdan tushib ketadigan bo'lsa atrofiga yupqa gazlama o'rab qo'yish mumkin.

Kashta tikish chambaraklari

Kashta tikiladigan gazlamani chambarakka tortishda uning kichik gardishi qo'yilib, iplarini qiyshaytirmasdan to'g'rilanadi. Katta gardishni uning ustiga qo'yib, bosib gazlama tarang tortib qo'yiladi.

Chambarak tortilayotgan yupqa gazlama yirtilmasligi, shuningdek, kashta tikiladigan gazlama ish paytida kir bo'lmasligi uchun, uning ustiga o'rtasi chambarakning diametridan kichikroq doira qilib qo'yilgan boshqa gazlama qo'yiladi.

Chambaraklar stolga mahkamlab qo'yish uchun vintli bo'lishi ham mumkin. Kashtalarning ko'p xillarida umuman chambarak ishlatilmaydi. Kashta tikish uchun cho'ziqroq ko'zli kalta (1 va 2 tartibli) ignalar tanlanadi. Ignaning ko'zi katta bo'lsa, bir necha qavat ipni o'tkazish oson bo'ladi. Bunday ignalar sanama va oddiy choklarni tikishda, hamda ipni sanash va ajratib olish uchun qulay. Jun ipni ignaga o'tkazish qiyin. Bu ipni o'tkazish uchun ignalar komplektidagi ip o'tkazgichdan foydalanish mumkin, uning bir qatim ipak yoki ingichka g'altak ip bilan o'tkazsa ham bo'ladi.

Qo'lda kashta tikish uchun o'ziga xos asboblari bo'ladi. Kashtachilikda ninalar, angishvona, qaychi, santimetr lenta, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar hamda chambarak (pyalsti) ishlatiladi. Kashtachilikda oq, kul rang, och sariq, och mallarang bo'z, surp, karboz, shoyi, baxmal, chit yoki satin kabi matolar ishlatiladi. Bunday matolarga naqsh kompozitsiyasi chizilganda yaxshi ko'rinadi, rangli iplarning aksariyati unga mos tushadi. Gullar va naqsh kompozitsiyalar chizish uchun chizg'ichlar, yumshoq qalamlar, daftar, albom, o'chirg'ich, millimetrli qog'oz, nusxa ko'chiradigan qog'oz va shaffof qogozlar kerak bo'ladi.

Chambaraklar gazlamani tarang tortib, so'ngra kashta tikish uchun ishlatiladi. 20 - 40sm. bo'lib, ikkita gardishdan iborat bo'lib, bir - biriniyig ichiga tushid turadi. Agar kichik gardish katta gardish ichiga qiyin tushadigan bo'lsa, katta gardishning ichki tomonini jilvir bilan tozalash kerak.

U juda kichik bo'lib, katta gardishdan tushib ketadigan bo'lsa, atrofiga yupqa gazlama o'rab qo'yish mumkin. Kashta tikiladigan gazlamani chambarakka tortishda, uning kichik gardishi qo'yilib, iplari to'g'rilanadi. Katta gardishni uning ustiga qo'yib, bosib, gazlama tarang tortib qo'yiladi. Chambarak tortilayotgan yupqa gazlama yirtilmasligi, shuningdek, kashta tikiladigan gazlama ish jarayonida iflos bo'lmasligi uchun, uning ustiga o'rtasi chambarakning diametridan kichikroq

doira qilib qo'yilgan boshqa gazlama qo'yiladi. Chambaraklar stolga mahkamlab qo'yish uchun vintli bo'lishi ham mumkin.

Kashtalarning ko'p xillarida umuman chambarak ishlatilmaydi. Kashta tikish uchun cho'ziqroq ko'zli kalta (1 va 2 tartibli) ninalar tanlanadi. Ninaning ko'zi katta bo'lsa, bir necha qavat ipni o'tkazish oson bo'ladi. Bunday ninalar sanama va oddiy choklarni tikishda, hamda ipni sanash va ajratib olish uchun qulay. Jun ipni ignaga o'tkazish qiyin. Bu ipni o'tkazish uchun ninalar komplektidagi ip o'tkazgichdan foydalanish mumkin. Uning bir qatim ipak yoki ingichka tolali ip bilan o'tkazsa ham bo'ladi.

Chambarak asosan yog'ochdan yasaladi, u doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham chambarak ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yog'och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Ayrim materiallarga masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun o'tkir uchli 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay bo'lishi uchun, ip 50-60 sm dan uzun bo'lmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa, angishvona qo'llanilmaydi. Naqsh nusxasi har xil materiallarga, har xil yo'llar bilan tushiriladi.

Masalan, nusxa ko'chiriladigan qog'ozlar axta, yorug'lik yordamida, naqsh chizilgan qog'ozni material ustidan ko'klab chiqiladi, keyin bu qog'ozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtado'zdan katta mahorat hamda did talab qiladi. To'g'ri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi.

Qo'lda kashta tikishning ikki turi bor:

1. Matoning arqoq hamda o'rim iplarini sanab kashta tikish;
2. Matoga naqsh-gul, tasvir konturini chizib, erkin kashta tikish.

Arqoq va o'rim iplari kesishtirib to'qilgan mato polotno, bo'z shaklida to'qilgan matoga tikiladi. Chunki bunday mato ishlarini sanab tikish qulay. Bunday kashta gullari geometrik shakllar, uzun-qisqa to'g'ri chiziqlardan iborat.

O'zbekistonda sanama kashtaning iroqi turi tarqalgan. Erkin kashta esa har qanday matoga tikilaveradi, tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. Kashta tikishni boshlaganda naqshlar cheti (konturi) oldin tikib chiqilib, keyin ichi to'ldiriladi.

Kashta tikilayotgan buyum tiza ustiga erkin tashlab qo'yilib tikiladi. Yirik buyumlar (so'zana, takiyapo'sh, gulko'rpa, choyshab, palak va boshqalar) kompozitsiya va naqsh chizilgach, bir necha taxtaga ajratilib, kashtado'zlik qilingach, qaytib birlashtirib tikiladi. Bunda har bir bo'lak boshqa-boshqa chevar tomonidan tikilishi mumkin, ammo ip ranglari va uslub chizmada belgilab olinadi va umumiy ranglar gammasi saqlangan bo'ladi. O'zbek kashtachiligida iroqi, ilma, bo'rma, bosma, xamdo'zi, chamak, chinda xayod, baxya choklari keng tarqalgan. Turli joylardagi badiiy kashtalarda choklar turlicha tikiladi. Chunonchi, Toshkentda ko'proq bosma choki, Shaxrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Buxoro, Samarqand, Nurotada yo'rma choki bilan tikiladi. Eng muhim masalalardan biri, avvalo kashtado'zning ish o'rniga katta e'tibor berish va qulayliklar yaratishdir. Kashta tikish qulay bo'lishi, charchatmasligi uchun, ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, mehnat qilishning muayyan qoidalariga rioya etish kerak.

Kashtado'zning ish o'rnini:

1. Asbob va moslamalar qo'yiladigan stol ustidagi ishga yorug'lik chap tomondan tushadigan holatda turishi kerak. Agar stolda quticha bo'lsa, unda ip maxsus xaltada, asboblarning qutichada, kashta gulli shaffof qog'ozi paketda saqlanishi kerak;
2. Kashtado'zning gavda holatiga ahamiyat berib, bukchaymay, boshni juda past egmasdan o'tirish kerak;
3. Ish vaqtida gavda biroz oldinga engashgan bo'lishi, ko'z bilan ish o'rtasidagi oraliq 25-30 sm dan oshmasligi lozim.
4. Chambarakning tagiga taxtacha, kitob va hokazolarni qo'yib balandroq o'rnatiladi;
5. Stulning suyanchig'iga suyanish mumkin bo'ladigan qilib, stolga yaqinroq surib qo'yiladi;
6. Ish vaqtida qo'lni to'g'ri qo'yish katta ahamiyatga ega;

7. Chap qo'l chambarak tagida bo'lib, o'ng qo'l chambarak ustida bo'lishi kerak.

Siyrak gazlamaga va to'rga baxyasimon suv chokli kashta tikishda o'ng qo'lda ignani uning uch tomoni bilan kashtaning teskari tomonidan o'tkaziladi. Ignaning uchli tomonini chap qo'lda tutib, uning ko'z tomoni bilan kashtaning o'ng tomoniga chiqariladi. O'ng qo'l bilan ip tortib qo'yiladi. Zich gazlamalarga kashta tikishda, kashtaning o'ngiga ignani uning uchki tomoni bilan chiqariladi.

Xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidolari:

1. Ish o'rniga yorug'lik oldi yoki chap tomonidan tushishi;
2. Kashta tikayotganda to'g'ri va boshni sal oldinga egib o'tirish;
3. Kashta tikishdan oldin, ish o'rnini ko'rib, ortiqcha narsalar bo'lsa yig'ishtirib so'ngra tikishni boshlash;
4. Tikish tugagach hamma asboblarni joy-joyiga qo'yish;
5. Kashta tikayotganda nina, to'g'nog'ich, qaychi va angishvona bilan ishlaganda ehtiyot bo'lishi kerak.
6. Qaychining og'zi ochiq holmasligi, biror kishiga uzatganda uning uchidan ushlab uzatish lozim.
7. Ninani og'ziga olish, ko'ylakka qadab qo'yish, har yerga tashlash, ipsiz qoldirish eng yomon odat. Ninani biroz ipi bilan nina qadag'ichga qadab qo'yish kerak.

Men kashtachilikda sovg'abop buyumlarning naqsh kompozitsiyasini yo'rma chokida tikdim. Yo'rma choki - yo'rmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning o'ng tomonida halqalar zanjiri hosil qilib tikiladi. Bigizga o'tkazilgan ipak matoning sirtida chap qo'l bilan ushlab turiladi. Sanchilib chiqqan igna bilan esa halqa hosil qilinadi. Yo'rma choklari bilan yirik kashtalarning hoshiyalari, gul va barglarni asosiy shohga ulaydigan bandlar tikilgan. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zlari ko'p foydalanadi.

So'zana – forsha so'zani deb yuritilib, “igna bilan tikilgan” degan ma'noni bildiradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi.

Kashtachilikda buyum tikishda kompozitsiya ikki qismdan iborat:

1. Markaz qismi
2. Hoshiya qismi

Kashtachilikda sovg'abop buyumlarning naqsh kompozitsiyasini yo'rma chokida tikilgan bo'lib, markazida stillashtirilgan gullar mavjud. Uning atrofida ikkita stillashtirilgan bodom va anor, shu bilan birga stillashtirilgan burglar mavjud. Buyumning chetlarida hoshiya qismi mavjud bo'lib, ularning atrofida stillashtirilgan gullar, novda va bodom naqshlari ritmik holatda joylashgan.

Sovg'abop buyum yoqimli qizg'ish, sariq, yashil va to'q qizil ranglarning tartibli ravishda qaytarilishi asosida tikiladi. Bu ranglarning bir xilda almashinib kelishi, Buxoro, Shofirkon kashtasiga mosdir. Rangli bezaklar ishlashda, faqat qizil ranglarga qo'llanilmay, balki gullar va bezaklarining ayrim joylari sariq, zangori, novvoti, och binafsha va pushti rang iplarda tikiladi. Odatga ko'ra gullar va doira bezaklarining chetiga konturlar tikilmaydi. Bu esa bezaklarning tabiiy gulga o'xshashiga olib keladi.

Gulning barglari to'q rangli chiziqlar bilan chegaralanadi. Kashtalardagi rang - baranglik qizil va yashil, sariq va binafsha, to'q sariq va havo rang, qizil va havo rang, yashil va to'q sariq, qora va oq ranglar kontrasti asosida beriladi. Buxoro kashtalarining xarakterli tomoni shundaki, ularda ko'proq zangori, kulrang iplar ishlatiladi. Aynan shu ranglarni Varaxsha devori naqshlarida ham (mil.avv. VII asr yodgorligi) uchratish mumkin.

Tuzilgan kompozitsiyaning mazmunan boy, chiroyli tuzilishi, naqshning asosiy shakl chegarasiga ham bog'liq. Kompozitsiya tuzishda dastlab o'lcham aniqlangach, naqshning asosiy shakli bajariladi. Naqsh eskizini tuzishda elementlar ko'rinishini yo'l, aylana, chorsi va hokazo shakl o'lchamining ichiga joylashtiriladi. Masalan, so'zana, yostiq jildi, liboslar kompozitsiyasini misol qilsak bo'ladi. Bu oddiy naqsh kompozitsiyasini bosqichma-bosqich, yo'l, to'rtburchak va aylana kabi shakllar ichiga joylashtirib, kompozitsiyal tuzib chiqiladi.

Odatda so'zanalar o'zida koinot, tabiat, baxt va sevgi tushunchalarini ifodalovchi xushmanzara polotnolardir. So'zanalar sathida voqa chevarlari tasavvurlaridagi dunyo aks etgan. So'zanalarning hajmi bo'yicha 1,5 metrdan 2 metrgacha, uzunligi 2 metrdan 4 metrgacha bo'lgan. Hamma so'zanalarga "mehrobgul" nomli jingalak naqshlar tushirilgan, keng hoshiyalar bilan o'rab olinadi. Tashqi hoshiyalar esa "oba" (suv) nomli to'liqinsimon naqshlar bilan bezatiladi.

Markazda asosan oy va quyoshni ifodalaydigan katta aylanalar joylashgan. Ushbu aylanalar soni 1 tadan 8 tagacha bo'ladi. Kashta tikilgan so'zana va yostiq jildi yakunlangandan so'ng, buyum choklari tozalanib, teskari tomonidan namlangan mato bilan dazmollangan bo'lishi kerak. Buyumning ikki marta buklab tikilgan cheti o'ng tomonidan ham dazmollanadi.

Kashta tikilgan so'zanalar, qiyiqchalar, dastro'mol, dasturxon va boshqa kashta buyumlarining chetlari cho'zilib ketmasligi uchun o'rtasidan boshlab dazmollanadi. Dazmollangan bunday kashta buyumlar to sovuguncha yoyilgan holda yotishi kerak.

Kashtado'z, musavvir, shoir yoki sozanda biron-bir yangi asarni yaratar ekan, albatta tabiatdan ilqom oladi va undagi mavjud go'zallikni yanada jozibalibroq aks ettirishga harakat qiladi. Ma'lumki, o'zbek xalq amaliy bezak san'atining qaysi bir turi bo'lmasin, uning zaminida naqsh kompozitsiyasi - kompozitsiya asoslari yotadi. Mavjud naqsh kompozitsiyasini ma'lum qonun-qoidalarga amal qilingan holda joylashtirish, ya'ni kompozitsiya tuzish uziga xos bilim va malakaga ega bo'lishni talab etadi.

Birgina "Bodom", "qalampir" nusxalari shaklidan kashtado'zlik, ganchkorlik, kulolchilik, zardo'zlik kabi xalq amaliy san'atida turli-tuman o'ziga xos naqsh namunalarini yaratish mumkin.

"O'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan ko'plab naqshlar, tabiat hamda voqelikning shartli tasviri bo'lishiga haramasdan, o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan. O'simliklar faqat bir tomonga qarab o'sadilar.

Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyuladi, lekin, novdada barglar bo'lib, bir xil yo'nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshlarda ham o'z aksini topgandir. Usta chizadigan naqsh shunchaki qog'oz betini to'ldirish emas, balki ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iborat".

Naqshlarni – shakl yasovchi elementlarning nomlari bilan atash mumkin. Masalan, “mehrob lola” – ko'rinishi ifodalangan yo'l ichidagi naqsh shakli odatda “qoshiya naqshlar” deb atalganligi sababli “mehrob qoshiya” deb nomlanadi. To'rtburchak shakldagi naqshlar patnisga o'xshash bo'lganligi sababli “mehrob patnis” shaklidagi naqsh kompozitsiyasini tashkil etadi va shunday nomlanadi. Aylana – gardish shaklidagi naqsh kompozitsiyasi esa “aylana mehrob” naqshi deb ataladi. Ushbu naqsh shakllarini ixtiyoriy ravishda yakka (1), qush (2) va bir necha bandli ramka ko'rinishlarida chizish mumkin. Bunday turdagi ko'rinishlar “naqshlar rejasi” deb ham yuritiladi. Tuziladigan naqsh kompozitsiyasi naqsh kompozitsiyasini ana shu kabi turli qoliplar ichiga joylashtirib qosil qilinadi.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzishni o'rganishda xalq ustalarining ijodiy ishlarini kuzatib, ulardan nusxalar ko'chiradilar. Shuningdek, turli muzeylar, uylar va ma'muriy binolarni ichki va tashqi tomonlarini bezashda qo'llanilgan naqshlar va ularning turlari bilan tanishtirib boriladi. Naqsh kompozitsiyasini yangi nusxalarini yaratish, ularni yoddan chizish borasida tabiat qo'yniga sayoqatga chiqish va unda nazariy hamda amaliy bilim, malakalar asosida stillashtirish usullari bilan bevosita shuqullanish kerak.


Yana ramziylik va qayta ishlashga doir maxsus ketma-ketlik asosida tuzilgan rangli yoki oq-qora foto-suratlardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Boshlanqich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzishda dastlab yuza sirtini, uning o'ziga xos o'lchamlarini diqqat bilan ko'zdan kechirib naqsh shaklini “xayolan” tanlab olamiz. (Masalan zo'zana yuzasiga bajariladigan eskiz). Albatta bu naqsh kompozitsiyasi biz qachonlardir kuzatib yoki o'zlashtirib olgan naqsh bo'laklaridan iborat.

Bunda biz fikr yuritishimiz orqali ish tajribalarimiz, tasavvur, shuningdek xotira zaqiralarimizda qanchalik ko'p naqsh kompozitsiyasi mavjud bo'lsa, shuncha ko'p ajoyib naqshlar tuzishimiz mumkin bo'ladi.

Kompozitsiyaning rejasini tuzish va chizish jarayonida, zamin bo'yicha tarqaluvchi naqshlar va elementlarning o'zaro mutanosibligi hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida (lozim topilgan taqdirda ayirish o'zgartirishlar kiritish orqali) har bir elementga aloqida ishlov berilgan holda, uning nusxasi kerakli matoga ko'chiriladi va yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi. Naqshda kompozitsiyalar asosan yakka va qo'sh bandli novdalar ishtirokida tuziladi. Yana bir boshqa naqsh kompozitsiyasini tuzish uchun mehrob ko'rinishigagi naqsh kompozitsiyasini tanlab olamiz.

Mavjud mehrob elementini yo'l, to'rtburchak va aylana matolari ichiga joylashtiramiz. Ushbu mehrob shakli kompozitsiyada yasovchi (asosiy shakl) vazifasini o'taydi. Navbatdagi chiziluvchi barcha naqsh kompozitsiyasini to'ldiruvchi elementlar deb atash mumkin. Chunki ular (bodom, anor, novda, barg, gul, kurtak, va hokazo) naqsh yuzalarini to'ldirib turadilar. Endi mehrob ko'rinishigagi shakllarga novda harakati kiritiladi. So'ngra, shakl yuzalariga mos ravishda lola guli hamda kurtak naqsh kompozitsiyasini chizamiz. Bunda o'ziga xos ko'rinishdagi yangi naqsh nusxalari qosil bo'ladi.

So'zanani tikishdan oldin, uning umumiy badiiy yechimini o'ylab ko'rish, bezakning, undagi ayrim bo'laklarning buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak.



Kompozitsiya xarakteri ko'proq ritmga – naqshdagi alohida elementlar yoki element gruppalarining qonuniy almashinishiga bog'liq bo'lib, bu kompozitsiyaning ifolali bo'lishiga, aniq idrok etilishiga yordam beradi.

Yo'l ichida bajarilgan ba'zi naqsh bezaklari, shunday xususiyatga egaki, har bir yo'lda ma'lum umumlashtirilgan uslubda, bitta motiv bir yoki bir necha marta takrorlanib, ritmik qator hosil qiladi. Mutlaqo bir xil elementlarning yoki elementlar gruppasining takrorlanishi rapport deyiladi.

Naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va h.) dan, shuningdek to'lqinsimon, siniq chiziqlar, o'simlik motivlari (barglar, gullar, shohlar, daraxtlar)dan , jonivorlar dunyosi (hasharotlar, qushlar, baliqlar va h.) tasviridan, shuningdek, umumlashgan odam qiyofasidan foydalanish mumkin. Ba'zan naqshda geometrik shakllar bilan tabiat motivlari qo'shilgan bo'ladi. Naqshning hamma qismlari mutanosib bo'lishi kerak.

Respublikamizning istiqbolga erishish, yo'qolib borayotgan qadimgi milliy an'anaviy hunarmandchilik va xalq amaliy san'atining qayta tiklashga va unga yosh avlodni qiziqtirishga keng yo'l ochib berdi. “Buxoro” degan tushuncha amaliy san'at sohasida kengroq ma'noni anglatadi va ayni paytda “mintaqaviy maktab” tushunchasiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham “Buxoro maktabining kashtachilik markazlari” degan ibora ishlatiladi.

XIX asrda shahar Buxoro amirligining poytaxti edi. Buxoro amirligi davrida ajoyib shaharda qo'li gul ustalar ishlaganlar. Buxoro shahrida ikki yuzdan ortiq mahalla va guzarlar bo'lib, ularning har birida turli kasb namoyondalari istiqomat qilishgan. Shahar aholisining 25 foizini hunarmandlar tashkil qilgan.

Amir saroyida 400 ga yaqin ustalar, xalq amaliy san'ati namoyondalari: ajoyib to'quvchilar, zardo'zlar, misgarlar, kandakorlar, kulollar, zargarlar, xattotlar, gilamboflar o'ymakorlar, naqqoshlar va kashtado'zlar ishlaganlar. Bu borada Buxoro xalq san'atining har bir turi yuksak professionallikka erishgan. Hozir Respublikamizning barcha viloyatlarida tiklanib borayotgan hunarmandchilik va amaliy san'atning noyob turlari o'zining taraqqiyot bosqichida ko'p yillar va asrlar bosib o'tgan yo'lida goh yuksalgan, goh pasaygan, lekin unda badiiy an'analarning avloddan avlodga o'tishi hech qachon to'xtamagan.

Aynan kashtado'zlik san'atining oltin davri XIX yarmida Buxoro shaxrida kashtachilikning ko'plab nodir turlari ishlab chiqarilar edi. Buxoro shaxrida tayyorlangan kashtalar o'zining ko'p katta bo'lmagan shakllari bilan ajralib turadi. Bu kashtalarda Buxoroning ming yillik tarixi ega me'moriy yodgorliklaridagi g'isht, loy, sopol, koshin devoriy bezaklarning va naqshlarning ta'sirini ko'ramiz. Buxoro shahrida turli millatlar yonma-yon yashaganlar. Ularning ko'p asrlik birgalikdagi turmushi shaharning boy, o'ziga xos an'alarini va urf-odatlarini dunyoga keltirgan. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan shahar aholisining aksariyati kosiblardan iborat bo'lgan.

Kashtachilik buyumlarining asosiy iste'molchilarining aksariyati ham ularning o'zlari bo'lishgan, shuning uchun ham bu davrda yaratilgan buxoro kashtalari yuksak mahorat va nozik did bilan yaratilgan. Bu kashtalar asosan kosibiy oq rangli ip gazlama "karbos"ga sidirg'a shoyiga, atlasga, adrasga va hisoriga sof ipak brishim bilan tikilgan. Breshim iplari pillaning o'rtasidagi toladan tayyorlangan. Buxoro kashtalari asosan "yo'rmado'zi", "ilmoq", kandaxayol, daravsh, duro'ya uslublarida bajarilgan. Buxoro kashtasida yuksak mahorat bilan qo'llanilgan "yo'rma" choki buyum yuzasidagi qo'shimcha qabariq - bo'rtma ko'rinishli naqsh gul hosil qiladi, undagi naqsh gullaridagi ipak iplar ranglarning uyg'unligini ta'minlaydi. Kashta naqshining har bir unsiri igna yoki bigiz bilan "yo'rma" chokida alohida-alohida tikilgan. Chok yo'nalishining o'zgaruvchanligi, ipak iplarning buyum sathida tovlanishiga sabab bo'lgan.

Buxoro kashtalarining jilosini qimmatbaho olmos qirralarining quyosh nurida tovlanishiga o'xshatish mumkin. Buxoro kashtalarining yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, chevarlar ranglarni juda ustalik bilan qo'llaydilar. Buxorolik chevarlar tikkan kashtalarda havo rang, kul rang, binafsha rang, pushti rang, qum rang, sariq rang, tillo rang, qizil rang, malina rangi, yashil ranglar o'zaro uyg'unlik hosil qilgan. Ortiqcha ranglarning yo'qligi, ranglarning bir-biriga o'ta mayinlik bilan almashuvi Buxoro kashtalariga o'zgacha viqor bag'ishlaydi.

Buxoro kashtalari tikilishida har bir so'zanada bir naqsh har xil hal qilinadi, shu bilan kishida naqshlari xilma xil ekan degan tasavvur qoldiradi. Alohida gulli va xonalari har xil rangli motivli, hoshiyasi go'zal "islamiy" naqshli, markaziy maydonda shoxlar va turli rombsimon kompozistiyalar ko'p qo'llaniladi. Bu Buxoro kashtachiligini yanada go'zal qilib ko'rsatadi. Buxoroning nafaqat XIX asr so'zanalari, takiyapo'sh yoki joypo'shlari, balki joynamoz va dastorpechlari ham yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Chizmakashning hunari avloddan - avlodga o'tib borgan, ular hunari sir saqlangan. So'zana kompozistiyasi aksariyat hollarda simmetriyaga asoslangan.

Asrlar bo'yi yig'ilib, avloddan avlodga avaylab-asrab kelangan an'analar doirasidagi bu poyonsiz boylik, undagi cheksiz xilma xillik bu o'ziga xos xalq san'atining bebaho xususiyatini tashkil etadi. Kashtachilik san'atining qaysi markazi boshqasiga qanchalik ta'sir etgan bo'lmasin, u eng avvalo o'zi shakllangan hududda rivojlangan va aynan shu erga xos belgilari bilan boshqasidan farq qiladi.

XULOSA

Prezidentimiz rahnamoligida xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligini rivojlantirish, sobiq tuzum davrida e'tiborsiz qolgan milliy qadriyatlarimizni qayta tiklashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda tadbirkorlikning rivojlanishi, ayniqsa, oilaviy hunarmandchilikning keng yo'lga qo'yilishi bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmonlari ko'p asrlik qadriyatlarimizni qayta tiklashda muhim hujjat bo'lib xizmat qilmoqda.

An'anaviy xalq san'ati markazlaridan biri ko'hna Buxoro shaxridir. Bu shahar Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashganligi, qadimdan Movarounnahr poytaxtlaridan biri bo'lib, boshqa ko'plab mintaqaviy shaharlar madaniyati, adabiyoti va san'atining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan me'mor ustalar, olimlar, ulamolar Buxoro madaniyatining shakllanishida katta o'rin tutganlar.

Xalqimizning tarixi, moddiy-ma'naviy merosi, orzu-istak va intilishlarini o'zida mujassam etgan, usta-hunarmandlarimiz tomonidan zo'r ishtiyoq, mahorat, yuksak did bilan yaratilgan gumbazu ravoqlar, koshin va naqqoshlik namunalari, qolaversa, milliy mato, nafis buyum va taqinchoq kabi milliy hunarmandchilik buyumlari asrlar osha nafaqat biz, balki dunyo ahlini ham hayratga solib kelmoqda. Xalqimizning boy madaniy merosi va milliy an'analarini o'zida to'la ifoda etgan amaliy kashtachilik san'ati turlaridan biri bu - so'zanadir. Jamiyat turmushi, iqtisodiyoti va siyosatdan o'zgarishlar bo'lib turishi bilan bir vaqtda kiyim shakllari ham o'zgarib boradi, xo'jalik yuritishning o'ziga xos jihatlari, xalqning moddiy ahvoli,

kisshilarning didi, go'zallik to'g'risidagi ideallari hamda oilaviy turmushning ba'zi tomonlari ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

Asosiy maqsad: mustaqil O'zbekiston Respublikasi xalqiga milliy o'zligini anglatish, uning qadimdan to hozirgi davrgacha bo'lgan an'anaviy, betakror kashtachilik badiiy buyumlarini ko'rsatish, tuman, qishloq va shaharlarda saqlanib kelayotgan farqlarni aks ettirish va ularning davomiyligini anglatishdan iborat.

O'zbek xalqining kashtada ko'zi tushmagan farzandi bo'lmasa kerak. Goho devorda, goho buvimiz va onamizning sandiqlari yoyilgan lahzalarda ba'zan hayratlanib, ba'zan e'tiborsiz qo'limizga olamiz. Lekin u so'zanani, palakni yoki choyshabni, farqiga bormaymiz, unda aks etgan tasvirlarga zavqlanib qarab: shunday katta narsani qo'lda tikib chiqish mashaqqat-ku, deya e'tirof etamiz.

Kashtadagi gul bezaklari, ornamentlar: olma, anor, gilos, olcha, bodom va qalampir tasvirlari tushurilgan jimjimador shakllar, bizning o'zimiz anglamagan holda hayollar olamiga etaklaydi. Chet el olimlari bizning milliy kashtachiligimizni yillar davomida o'rganishgan va badiiy san'at deya e'tirof etishgan. Bu namunalarning san'at asari ekanligini anglay olmaymiz? Momolarimiz aytadilarki, kashta asosan qizlarni katta hayotga kuzatish, turmushga chiqarishga tayyorlash vositasi bo'lib, u juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Avvalo qizlarni mehnatga, go'zal milliy qadriyat va urf odatiga oshno etib tarbiyalashda o'z ifodasini topadi. Kashtalar tilini, sirini ongli ravishda tushunish uchun boy, go'zal dunyosini anglashga va bu san'at namunalari yaratgan nozik did egalarining mehnatini qadrlashga o'quvchilarni tayyorlab boramiz. Halq kashtachiligini o'ziga hos san'at, hunar sifatida o'rganish hozirgi zamon talablaridan biridir.

LOVALAR




**“ISLIMIY NAQSHLARDAN FOYDALANIB, KASHTACHILIKDA
SOVG’ABOP BUYUMLAR TAYYORLASH”**
(Fragment)



**“ISLIMIY NAQSHLARDAN FOYDALANIB, KASHTACHILIKDA
SOVG’ABOP BUYUMLAR TAYYORLASH”**
(Fragment)



**“ISLIMIY NAQSHLARDAN FOYDALANIB, KASHTACHILIKDA
SOVG’ABOP BUYUMLAR TAYYORLASH”
(Fragment)**



TALABA BITIRUV MALAKAVIY ISHI USTIDA




TALABA BITIRUV MALAKAVIY ISHI USTIDA



TALABA BITIRUV MALAKAVIY ISHI USTIDA



ISLIMIY NAQSHLARDAN TUZILGAN SOVG'ABOP BUYUM



BITIRUV MALAKAVIY ISHNING O'RGANISH JARATONI

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'ridagi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi qonunlari". Toshkent-1998 yil.
2. B.Qurbonov. O'zbekiston amaliy san'ati. SP "SM-PRINT" T-2003
3. S.Bulatov. "Xalq amaliy bezak san'ati". 1991 yil.
4. T.A.Abdullayev, S.A.Hasanov "Odejda uzbekov XIX-XX v." T.1978
5. Zuhro Obloberdiyeva "Buxoro kashtachilik san'ati". Buxoro-2002 y.
6. S.S.Bulatov. B.Axanov. "Rang psixologiyasi". Toshkent-2004.7-8 bet.
7. T.I.Yeryomenko. "Sehrli igna". Toshkent-1992 yil.
8. Ye.Glinskaya. "Azbuksa vishivaniya". Toshkent-1994 yil.
9. R.I.Yegorova. "Uchis shit". Moskva-1989 yil.
10. Barotova Sh. O'zbek so'zanalari. San'at. XIX98. № 1-3. 36-38 betlar.
11. Gyo'l E. Buxoro so'zanalariida Hirot naqshlari. San'at. 2000.№2.26-27 b.
12. Nabiev M. Rangshunoslik . - T .:O'qituvchi, 1995.
13. Ochiq osmon ostidagi muzey (Tuz. G.A.Pugachenkova) - T.:Adabiyot va san'at nashriyoti. 1981.
14. Qosimov Q. Naqqoshlik - T.:O'qituvchi. 1990.
15. Qosimov Q. Naqqoshlik - T.:O'qituvchi. 1982.
16. Egamov Q. Bo'yoqlar bilan ishlash. - T.: O'qituvchi. 1981.
17. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. - T.: "Fan".
18. G'ulomov S.S. Bulatov S.S. Sharqona "Usta-shogird" odobi O'zROUMTV

INTERNET SAYTI

1. www.ziynet.uz
2. www.google.uz
3. www.google.ru
4. www.tdpu.uz

MUNDARIJA:

1.KIRISH.....	3-7
2.NAQQOSHLIK SAN’ATI VA UNING TARIXI.....	8-18
3.NAQSH VA UNING TURLARI.....	19-26
4.TABIIY O’SIMLIKLAR TURLARINI NAQSH ELEMENTLARI HOLATIDA CHIZISH. STILISATSIYA.....	27-30
5.MILLIY KASHTACHILIK TARIXIDAN.....	31-35
6.BUXORO VA NUROTA KASHTACHILIK MAKTABLARI.....	36-41
7.KASHTACHILIKDA NAQSH KOMPOZITSIYASI VA UNING TURLARI.....	42-49
8.KASHTA TIKISH TEXNOLOGIYASI.....	50-58
9.KASHTACHILIK MISOLIDA SOVG’ABOP BUYUM TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI.....	59-70
10.XULOSA.....	71-72
11.ILOVA.....	73-81
12.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	82
13.MUNDARIJA.....	83